

MUNDARIJA

I KIRISH	3
II ASOSIY QISM	8
I BOB. ERKIN SO'Z BIRIKMASINING SINTAKTIK DERIVATSION TALQINI	8
1.1-§. Derevatologiya va uning shakllanishi	9
1.2-§. So'z birikmasi tushunchasi va uning hosil bo'lish yo'llari.....	12
1.3 -§. Koreys va o'zbek tillarida Erkin va turg'un so'z birikmalarining o'zaro farqi.....	16
II BOB. O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARNING BOSH BO'LAKLAR BILAN BIRIKISH O'RNI	22
2.1 -§. O'zbek va koreys tillarida erkin so'z birikmalarining semantik xususiyatlari	35
2.2 -§. O'zbek va koreys tillarida erkin so'z birikmalarining grammatik tabiatini ochish.....	43
XULOSA	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	50

K I R I S H

So'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy sohalarda mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Bunday vazifalardan biri, shubhasiz, chet tillarni o'rganish va o'rgatish masalasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'biri bilan aytganda, "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"¹.

Darhaqiqat, xorijiy tillarni, jumladan, koreys tilini har tomonlama chuqur tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shuni hisobga olgan holda, biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek-koreys tillari frazeologiyasidagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Mavzuning dolzarbligi. Tillar har xil bo'lsa ham ularning sistemasidagi ma'lum semantik kategoriyalarni ifodalovchi birliklarda umumiy jihatlarni kuzatish mumkin. O'zbek va koreys tillarida so'z birikmasi qolipidagi frazemalarni turli til sathlari asosida semantik, grammatik jihatdan qiyoslash shu kategoriyalarning ifodalanishidagi mushtaraklik hamda farqlanishlarning to'g'ri talqin etilishiga zamin yaratadi. Zotan, bu jarayonga aloqador masalalarni chuqur tadqiq etish tilning leksik-semantik sathigagina daxldor bo'lmay, uning boshqa sathlarida lingvistik, ekstralingvistik omillar ta'siri asosida yuz beradigan o'zgarishlarini atroflicha tavsiflashni talab qiladi. Bu esa til tizimining muhim uzvi bo'lgan frazeologik birliklarga aloqador ko'plab masalalar xususida ikki til nuqtai nazaridan aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Darhaqiqat, frazemaning o'ziga xos xususiyatlari, koreys va o'zbek tillari frazemalari orasidagi tafovutlar hamda o'xshashliklar frazeologik birliklarni vujudga keltiruvchi omillar, so'z birikmasi qolipidagi frazemalarning semantik, grammatik tabiati kabi masalalarni o'zbek-

¹ Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir" nomli ma'ruzasidan. Zarafshon gazetasi, 2011 yil, 8 dekabr, 146-soni.

koreys tillarining ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflash zarurati, mazkur ish va ish uchun tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi. Zero, «Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatadi». Chunki, har qanday «fan – jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vositadir»².

Tanlangan mavzuning dolzarbligi erkin so'z birikmalarining o'zbek va koreys tili materiallari asosida tavsiflashdan iborat ekanligi bilan izohlanadi. Tilning so'z birikmasi qatlamiga mansub birliklarni ikki til misolida ko'rib chiqish koreys-o'zbek erkin so'z birikmasidagi chuqur o'rganishga, unga xos lingvistik mohiyatni tavsiflashga, qolaversa, ularni badiiy matnlarda o'qib tushunish jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumxalq tilining mazmunli, ta'sirchan birliklaridan biri so'z birikmasi bo'lib, ular tilning uslubiy-bo'yoqdorlik xususiyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi boy manbadir. Fikrimizcha, erkin so'z birikmasini ikki til materiallari asosida qiyosiy o'rganish tillarning o'ziga xos jilosini namoyish etish, mavjud lug'atlarni yanada boyitish, til va nutq madaniyatini yuqori ko'tarishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tilni boyitishning eng muhim vositalaridan biri bo'lgan, erkin so'z birikmalari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan keng miqyosda tadqiq etish borasidagi ishlar tarixi ancha oldinga borib taqaladi. Bu borada umumiy tilshunoslikda, shuningdek, o'zbek va koreys tilshunosligida ham qator e'tiborga molik ilmiy-nazariy tadqiqotlar yaratildi.

Ayniqsa, erkin so'z birikmalarining o'ziga xos leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari batafsil ishlab chiqilgan. Biroq, hozirgi kunga qadar erkin so'z birikmalarining o'zbek va koreys tili materiallari asosidagi qiyosiy talqini berilgan tadqiqotni uchratmadik. Ushbu dalilning o'ziyoq biz tanlagan mavzuni tadqiq etish zaruriyati borligini tasdiqlaydi. Bizning tadqiqot bu xususdagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ularni sodda misollar va tushuntirishlar orqali erkin so'z birikmasiga xos xususiyatlarni amaliy tarzda izohlashi bilan ajralib turadi.

² Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: O'zbekiston, 1997. -B. 23.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishida erkin soʻz birikmalarining ikki til materiallari asosida tadqiqot obyekti sifatida oʻrganish va uning oʻziga xos xususiyatlarini tahlil etish maqsad qilib qoʻyildi.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot oldiga qoʻyilgan masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga eʼtibor qaratildi:

- oʻzbek-koreys tillari birikmalarining hozirgi zamon tilshunosligida tutgan oʻrnini hamda frazeologiyaning tilning boyish manbai ekanligini tavsiflash;
- erkin birikmalarining asosiy lingvistik tabiatini ochib berish;
- soʻz birikmalari va ularning turlari xususida fikr yuritish;
- koreys va oʻzbek tillaridagi erkin soʻz birikmasining oʻrnini belgilash;
- frazeologik birliklar frazeologik sistemaning nominativlik xususiyatini koʻrsatuvchi asosiy manba ekanligini yoritish;
- oʻzbek va koreys tillarida erkin soʻz birikmasining semantik xususiyatlarini qiyosiy tavsiflash;
- oʻzbek va koreys tillarida erkin soʻz birikmasining grammatik tabiatini ochish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Semantik jihatdan bir butun umumlashgan maʼno anglatuvchi, tuzilishiga koʻra gap shakliga teng, nutq jarayonida yaratilmay, unga tayyor holatda kiritiladigan erkin birikmalar, yaʼni, erkin soʻz birikmalarini oʻrganuvchi sintaksis boʻlimi bitiruv malakaviy ishining asosiy tadqiqot obyekti boʻlib, ushbu jarayon bilan kechadigan hodisalarini aniqlash hamda erkin soʻz birikmalarining oʻziga xos xususiyatlarini oʻzbek-koreys tillari materiallari asosida tahlil qilish esa ishning predmetini taqozo etadi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Ishning metodologik asosini borliqning eng muhim vazifalaridan biri boʻlgan til tizimi va uni tashkil etuvchi unsurlarning doimiy dialektik taraqqiyotda ekanligini aks ettiruvchi falsafiy qarashlar, sistem-struktur tavsifga doir ilmiy-nazariy mulohazalar, til birliklarini qiyosiy tavsiflash usullari tashkil etadi. Shuningdek, tilshunoslikning grammatika, leksik-semantika, stilistika borasidagi nazariy yoʻnalishlar hamda taniqli

tilshunoslarning nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda sistem-struktur va qiyosiy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar quyidagilardan iborat:

1. so'z birikmasini o'rganuvchi sintaksis hodisasining o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini tadqiq etish.

2. erkin so'z birikmalarining tilning boyish manbai sifatidagi rolini ko'rsatib berish;

3. O'zbek va koreys tilining leksik-semantik tizimida erkin so'z birikmalari o'rnini belgilash hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini isbotlash uchun muayyan ma'no ifodalashga xoslovchi vositalar imkoniyatining kengligi va turli-tumanligi asos bo'lishiga e'tibor qaratish.

4. So'z birikmalari va ularning turlarini tahlil etish.

5. Erkin so'z birikmalarining hosil bo'lish jarayonida ishtirok etuvchi birliklarning til va nutqdagi o'rnini faktik til materiallari yordamida dalillash.

6. Koreys va o'zbek tilidagi erkin so'z birikmasining o'rni masalasini hal qilish.

7. erkin so'z birikmasining leksik-grammatik jihatdan uzviy va farqli tomonlarni ikki til materiallari asosida isbotlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning maqsad va vazifalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ilmiy-nazariy mulohazalar hamda amaliy tahlillar jarayonida quyidagi yangiliklarga erishildi:

– tilshunoslikda so'z birikmasining o'rni va uning lingvistik tabiati sistem talqin asosida tahlil qilindi;

– ko'chma ma'noli turg'un so'z birikmalarini taqozo etuvchi frazeologiya hodisasi frazemalarning semantik va grammatik xususiyatlari asosida yoritilib bir-biridan farqlandi;

– semantik maydonda erkin soʻz birikmasini yuzaga keltiruvchi vositalar hamda ularning ushbu jarayonidagi roli tavsiflandi;

– soʻz birikmasida namoyon boʻluvchi koreys-oʻzbek til birliklariga xos jihatlar ochib berildi;

– oʻzbek va koreys tilidagi soʻz birikmasining umumiy va farqli tomonlari ilmiy asoslandi;

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati ishda leksemalarning yaxlit maʼno anglatuvchi tilning lingvistik tabiatini ochish asosida namoyon boʻladi. Shuningdek, erkin soʻz birikmalarining sistem talqinidagi soʻz birikmasi hosil boʻlishining semantik, struktur, funksional qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradigan farazlar umumlashtirildi. Xususan, bitiruv malakaviy ishida soʻz birikmalari shakllariga xos ichki xususiyatlarning rivojlanishidagi sistem koʻrsatkichlar tavsiflandi, oʻzbek va koreyscha erkin soʻz birikmasining birikmalarning oʻziga xos birligi hamda qarama-qarshiligi namoyon etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati oʻqitish jarayonini takomillashtirish, til oʻrganish va oʻrgatish uslubini hamda ikki til sistemasini tushuntirishni osonlashtirish, badiiy, avtomatik tarjima uchun zamin yaratishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

II ASOSIY QISM

I BOB: ERKIN SO'Z BIRIKMASINING SINTAKTIK

DEREVATSION TALQINI.

Umumxalq tilining mazmunli, ta'sirchan birliklaridan biri so'z birikmasi bo'lib, ular har qanday tilning uslubiy-bo'yoqdorlik xususiyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi boy manba hisoblanadi. So'z birikmasi tilning ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganilishi zarur bo'lgan birligi hisoblanadi. Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davriga qadar frazeologik biriklarga xos xususiyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Biroq so'z birikmasi qolipidagi frazemalarning o'zbek va koreys tili materiallari nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etish masalasi e'tibordan chetda qolgan. Bizning nazarimizda har ikki til frazemalari asosida bu jarayonga aloqador jihatlarni tahlil etish ba'zi masalalar xususida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi.

So'z birikmasi tushunchasi va uning lingvistik tabiati. Ma'lumki, til bevosita kuzatib bo'lmaydigan semiotik belgilar va ularning bog'lanishini ta'minlovchi qonun-qoidalar yig'indisidan tashkil topgan murakkab sistemadir. Mazkur sistema o'zi-o'zi uchun emas, balki nutqning shakllanishi uchun xizmat qiladi. Ana shunday birliklardan biri, shubhasiz, so'z birikmasidir. So'z birikmasi deganda biz ikki va undan ortiq so'zning o'zaro grammatik bog'lanishidan hosil bo'lgan qo'shilmani tushunamiz. so'z birikmasining bog'lanishi uchga: moslashuv, boshqaruv, bitishuv kabi turlarga ajratiladi Grammatik bog'lanishning keng tarqalgan turi bu bitishuv yo'li bilan bog'lanishdir, forma jihatdan boy va murakkabligi esa boshqarish yo'li bilan aloqaga kirishgan so'zlarning o'zaro birikuvidir. so'z birikmasining bog'lanishi uchga: moslashuv, boshqaruv, bitishuv kabi turlarga ajratiladi. So'z birikmasi sintaksisi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalar ana shu ikkinchi tur- boshqaruv yo'li bilan bog'lanish turiga aloqadordir. Moslashuv turi bilan bog'lanish turi esa tarqalish e'tibori bilan juda cheklangan bo'lib, yolg'iz qaratqich-qaralmish aloqalari chegarasida ko'riladi, predikatsiya bilan bog'liq bo'lgan birikuvlar esa ma'lum sabablarga ko'ra so'z birikmalari bobida maxsus o'rganilmaydi.

So'z birikmasi hokim so'z va tobe so'zdan tuzilgan bo'ladi. Tobe so'z hokim so'zni aniqlab, to'ldirib ,izohlab keladi.turli xildagi turkum so'zlari hokim so'z vazifasida kelishi mumkin.

Erkin so'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi: Otli so'z birikmasi va fe'lli so'z birikmasi.

Otli so'z birikmasida hokim so'z ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi:

Shaharning ko'chalari - 도시의 길

Hammasidan katta - 모든 것들 중에서 큰

O'quvchilarning hammasi - 모두 학생들

Go'zal o'lka - 아름다운 고향

Katta qishloq - 큰 시골

Fe'lli so'z birikmasida hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi:

Kitobni o'qimoq - 책을 읽다

Daftarga yozmoq - 공책에 쓰다

Tez yugurmoq - 빨리 뛰다

Sekin gapirmoq - 전전해 말하다

G'ayrat bilan o'qimoq - 열심히 공부하다

O'zbek tilida so'z birikmalarining tobe so'zi ,asosan, hokim so'zdan oldin keladi.

1.1-§ Derevatologiya va uning shakllanishi

Derevatologiya tilshunoslik fanining alohida yo'nalishi sifatida bugungi kunda o'zining mustaqil maqomiga ega. U derevatsiya muammolarini o'rganishga xoslanganligi bois, etimotologik nuqta'i nazardan mazkur tushuncha bilan uzviy bog'lanadi. Derevatsiya tushunchasi aslida, lotin tilidagi *derevatio* (*ayrilish, ajralish, tarmoqlanish*) so'zidan olingan bo'lib, u tilshunoslikda yasalish, shakllanish ma'nolarida qo'llanilmoqda.

Derevatologiya termini 1981-yilda Perm universitetida (derevatologiyaning nazariy muammolari) mavzusida o'tkazilgan nufuzli ilmiy konferensiyada qabul qilindi va hayotga yo'llanma oldi. Ammo mazkur konferensiyaning asosiy maqsadi derevatsion muammolarning o'rganilishi tarixiy ildizlarini belgilab berish emas edi. Bu anjumanning amaliy ahamiyati shundaki, unda

derevatologiya tushunchasi nafaqat ilmiy iste'molga kiritildi, balki unga tilshunoslikning alohida bir yo'nalishi sifatida hayotga yo'llanma ham berildi.

SHunisi bilan ravshanki, derevatsiya tushunchasi qariyb hozirga qadar so'z yasalishi tushunchasining mantiqiy sinonimi sifatida qo'llanilib kelindi. Hozirgi tilshunoslikda derevatsiya nazariyasidan so'z birikmalari, gap, murakkab sintaktik qurilma va matn kabi nutq birliklarining shakllanishi muammolarini o'rganishda keng foydalanilmoqda. Bugungi kunda derevatologik tadqiqotlarda iste'molga kiritilishi lozim bo'lgan terminlarni va derevatologiya shug'ullanishi kerak bo'lgan vazifalarni aniq belgilagan deyish mumkin.

Derevatologiyaning shakllanishi va tarixiy ildizlari haqida so'z yuritar ekanmiz Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida berilgan yasama so'zlarga ham nazar tashlab o'tish lozim, deb o'ylaymiz. Asarda tub hamda yasama so'zlar xususida ma'lumot berilganda, olim quyidagilarni qayd etadi. Otlar ikki turlidir: yasama ot va tub ot. Fe'llardan yasalgan otlar fe'l oxiriga o'n ikki harfdan birini qo'yish bilan yasaladi.

Qilich, oq kabi otlar tub otlardir. Bu xil otlar boshqa so'zlardan kelib chiqmagan. Yasama otlar boshqa so'zlardan kelib chiqadi.

Mahmud Koshg'ariy otdan ot yasalish, fe'llarning yasalishi haqida ham atroflicha ma'lumot beradi. Eng muhimi, uning so'z yasalishi masalasiga jiddiy e'tibor qaratganligidir. Bu esa bugungi derevatologiyaning tarixiy ildizlarini turkiy tillar materialida ham kuzatish mumkinligini ko'rsatadi.

Shuni ham aytish lozimki, leksik derevatsiyani ko'pchilik tilshunoslar so'z yasalishi hodisasining muqobili deb biladilar. To'g'ri, leksik derevatsiya so'z yasalishini taqozo etadi. Ularning asosiy tamoyillari mushtarakdir. Masalan, **so'z yasalishi asosi** va **yasovchi formant** tushunchalari derevatsion nuqta'i nazardan ham ahamiyat kasb etadi. Bunda faqat terminlar o'rtasida farq kuzatiladi. Boshqacha aytganda, leksik derevatsiyada *so'z yasalishining asosi* o'rniga **operand**, **yasovchi** formant o'rniga esa **operator** terminlaridan foydalaniladi. Biroq leksik derevatsiya, so'z yasalishidan farqli ravishda hosila struktura (derevat) sathida ro'y beruvchi morfemalarning ichki munosabatini

ham tekshiradi. Masalan, **ishchi** so'zini olaylik. Mazkur so'z, shubhasiz, yasama so'z qolipidagi hosilani taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida, uning leksik derevatsiya mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Agar mazkur hosila sathida qo'llanilayotgan morfemalarning o'zaro munosabatga kirishuviga e'tibor qaratsak, quyidagilarni kuzatamiz: **ish**-obyekt, **-chi**-ijrochi (keng ma'noda). Biroq obyekt bilan ijrochi hech qachon to'g'ridan-to'g'ri bog'lana olmaydi. Shu bois ular harakat ma'nosi orqali bir-biri bilan munosabat tashkil etmoqda. Demak, ayni paytda obyekt+harakat+ijrochi o'rtasidagi bog'lanishni ko'ramiz. Lekin qizig'i shundaki, bu o'rinda til birliklarining gorizantal chiziqda ro'y berayotgan sintaktik bog'lanishi shakllanmoqda. Demak, yasama so'z sathida sintaktik munosabat vujudga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, so'z sintaksisi tushunchasini tadqiqotlqr kun tartibiga qo'yadi. Bu jihatdan, albatta, leksik va sintaktik derevatsiya tushunchalari bir-biriga maksimal darajada yaqinlashadi. Ammo bu bilan leksik va sintaktik derevatsiya tushunchalarini qorishtirib yuborib ham bo'lmaydi. Chunki yasama so'zlar shakllanishi bilan shug'ullanuvchi leksik derevatsiya dinamik xarakter kasb eta olmaydi, u statik belgilariga ko'ra ajralib turadi. Sintaktik derevatsiya esa mudom dinamik xarakterlidir.

Agar bu hodisalarni ham semantik derevatsiya nazariyasi bilan bog'laydigan bo'lsak,(bunday bo'lishi, albatta, tabiiy) u holda derevatsiyaning mazkur turi tekshiruv obyektlari soni yanada oshadi. Umuman olganda, semantik derevatsiya nazariyasi nimalar bilan tugallanishi lozimligi va uning tekshiruv obyektlari masalasi hali to'liq hal etilganicha yo'q. Nazarimizda, semantik derevatsiya nazariyasi hodisasi ma'no majoziyliigi bilan ham uzviy bog'lanadi va shu bois uning asosiy tekshiruv obyektlari jumlasiga frazeologik ibora hamda parafrazalar tadqiqi ham kiritilmog'i lozim. Mazkur obyektlarning har ikkalasida ham denotat-signifikat o'rtasidagi bog'lanish semantik derevatsiya tamoyillariga bo'ysunadi. Albatta, denotat-signifikat munosabatining bu xildagi ko'rinishi metafora, metonimiya hodisalarida ham qayd etiladi. Shu bois mazkur hodisalar ham semantik derevatsiya nazariyasining tekshiruv obyektlari

hisoblanishi tabiiydir. Bundan tashqari, soʻz yasalişining affiksia hodisasi leksik derevatsiya, konversia hodisasi esa semantik derevatsiya doirasida roʻy berishi alohida tekshiruv obyekti boʻla oladi. Oʻylaymizki, hali qilinajak tadqiqot ishlarida semantik derevatsiya va uning tekshiruv obyektlari oydinlashtiriladi.

Shunisi xarakterliki, biz yuqorida fikr bildirgan leksik, semantik va sintaktik derevatsiyalarning har birining ilmiy tadqiqiga bir xil *operand*, *operator* va *derevat* terminlari qoʻllaniladi. Operand –bu derevatsiya asoslanadigan faktik til materiali demakdir. Masalan, **tilshunos** yasama soʻzining leksik derevatsiyasi operandi **til** soʻzi hisoblanadi. Ayni paytda operand tarkibsiz boʻlgani uchun faqat soda operand haqida soʻz yuritish mumkin. **Gʻoʻzapoya** yasama soʻzining leksik derevatsiyasi esa **gʻoʻza+poya** tarzidagi tarkibli operandga asoslanadi. Derevatologiyada unday operand *murakkab operand* deb ataladi.

Berilgan misollarning birinchisida leksik derevatsiyani shakllantiruvchi vosita sifatida **-shunos** morfemasi, ikkinchisida esa yashirin holda kelayotgan **-ning** (gʻoʻzaning) morfemasi faollik koʻrsatmoqda. Mazkur morfologik vositalar derevatsiya operatori vazifasini bajaradi.

Derevatsiyaning natijasi (soʻngi mahsul) hosilani taqozo etadi. Bu oʻrinda derevatologiyada **derevat** terminidan foydalaniladi. Masalan, *Sobir institutga kirdi*. Gapi yaxlitligicha derevat, yaʼni hosila sanaladi. Ayni paytda *Sobir, institut, kirdi* soʻzlari derevatsiya operandlarini taqozo etmoqda, derevatsiya operatori esa **-ga** joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi bilan ifodalanmoqda.

Koʻrinib turibdiki, bir paytning oʻzida derevatsiyaning barcha turlarini tadqiq qilish va ular haqida maʼlumot berish qiyin, albatta. Shu bois tadqiqot oldiga qoʻyilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, har safar mazkur turlarning biri xususida soʻz yuritish mumkin.

1.2-§. Soʻz birikmasi tushunchasi va uning hosil boʻlish yoʻllari

Kelishik va egalik qoʻshimchalari hamda koʻmakchilar erkin soʻz birikmalari tarkibida soʻzlarni bir-biriga bogʻlashga xizmat qiladi. Oʻzbek tilida tobe soʻzning hokim soʻzga qaratqich kelishigi qoʻshimchasi, yaʼni –ning qoʻshimchasi orqali

hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi **moslashuv** deyiladi. Koreys tilida esa aynan bunday bog'lanish turi mavjud bo'lmay, bu o'zbek tilidagi –ning qo'shimchasiga mos keladigan –의 qo'shimchasi orqali birikadi.

Ukamning kitobi - 남동생의 책

Maktabning bog'I - 학교의 공원

Bizning sinfizmiz - 우리의 교실

Sizning ukangiz - 당신의 남동생

Tobe so'zning hokim so'zga tushum so'zga tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yokiko'makchilar yordamida bog'lanishi **boshqaruv** deyiladi. Koreys tilida erkin so'z birikmalarining bunday boshqaruv turi asosida bog'lanish turi mavjud emas, shu bois o'zbek tilidagi ana shunday qo'shimchalarga teng kela oladigan qo'shimchalar orqali hosil qilinadi.

Do'stlarni hurmat qilmoq - 친구들을 존경하다

G'alaba uchun kurashmoq - 승리 위해 싸우다

Yoshlarga g'amxo'rlik qilmoq - 젊은이들을 돌보다

So'z birikmalari tarkibida tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va anglatgan ma'nosiga ko'ra bog'lanishi **bitishuv** deyiladi. Koreys tilida erkin so'z birikmalarining bunday bog'lanish turi ham mavjud bo'lmasdan bu bog'lanish turiga teng kela oladigan so'z lar bila ohang va anglatgan ma'nosiga ko'ra birikadi.

Tez termoq - 빨리 타다

Chiroyli gapirmoq - 예쁘게 말하다

Ishchan o'quvchi - 부지런한 학생

Mehribon ustoz - 착한 선생님

Tilshunoslik tarixi va bugungi kunini kuzatar ekanmiz, frazeologiya hamda uning eng kichik birligi frazema masalasi yetarlicha yoritilganligi guvohi bo'lamiz. O.S.Axmanova turg'un so'z birikmalari atamasini frazeologik iboralar bilan bir

qatorda qo'llaydi va bunday birikmalar jumlasiga idiomatik xarakterdagi so'zlar munosabati asosida yuzaga keluvchi iboralarni kiritadi¹.

“Mazkur mulohazaga ko'ra, turg'un so'z birikmalari frazeologik iboralar bilan bir xil ma'no anglatadi. Lekin turg'un so'z birikmalarining ba'zi turlari na leksikologiyada, na morfologiyada, na sintaksisda va na frazeologiyada o'rganiladi. Ularning leksikologiyada yoki morfologiyada o'rganilmasligi sababi birikma tarkibida birdan ortiq so'zlarning mavjudligi bo'lsa, sintaksisda o'rganilmasligining sababi birikma unsurlarining o'zaro aloqasi turg'un ekanligidir. Shuningdek, bunday birikmalar frazeologik tadqiqotlarda ham nazardan chetda qolib kelmoqda. Chunki birikma unsurlari ko'p hollarda yolg'iz bir mazmun ifodasini bermaydi. Aslida esa frazeologik iboralar ham turg'un so'z birikmalarining bir turidir”³.

A.Hojiyev o'zining “Lingvistik terminlarning izohli lug'ati”da frazema(frazeologik birlik, frazeogramma, frazeologizm)ga turg'un birikmalarining obrazli, ko'chma ma'noga ega turi sifatida qaraydi va ularni uch guruhga ajratadi: 1) frazeologik qo'shilma, 2) frazeologik butunlik, 3) frazeologik chatishma.

N.N.Prokopovichning fikriga ko'ra, frazeologik birliklar so'z birikmasi qismlarining o'z lug'aviy ma'nolarini yo'qotishi natijasida vujudga keladi. Olimning fikricha, turg'un munosabatdagi bunday birikmalarining asosiy qismi mazmuni bir so'zga teng bo'ladi: **baho bermoq – baholamoq**⁴. Bizningcha, yuqoridagi baho bermoq – baholamoq misolidagi frazeologik birlik sifatida taqdim etilayotgan baho bermoq birikuvi qo'shma so'z hisoblanadi. Tilda keng imkoniyatlarga ega bo'lgan frazeologik birikmalar va ularning grammatikalashishi masalasi O.I.Moskalskaya va B.A.Olxovikov tadqiqotlarida atroflicha tahlil etilgan⁴.

O.I.Moskalskaya «Grammatik yo'nalishdagi turg'un so'z birikmalar» nomli maqolasida: «Turg'un so'z birikmalar tushunchasi faqat leksikologiya uchun emas, balki grammatika uchun ham zarurdir»,–deb yozadi². Grammatikalizasiyalangan turg'un so'z birikmalarida nominativlik xususiyat susayadi. Aksincha, turli

³ Turniyozov N. Nazariy grammatikadan ocherklar – Samarqand, 1998. -B. 17.

⁴ Москальская О.И. Устойчивые словосочетания с грамматической направленностью // ВЯ, 1961. -№ 5. – С. 87.

grammatik ma'nolar, birinchi navbatda, modallik, zamon va tur (vid) ma'nolari faol ifodalanadi. Bunda grammatik yo'nalishdagi turg'un so'z birikmalarini erkin so'z birikmalari va turg'un frazeologik birliklardan ajrata olish lozim. Grammatikalizasiyalangan turg'un birliklar grammatikaning o'rganish obyekti hisoblanadi. Ular qo'shimcha grammatik ma'no ifodalovchi vositalardir.

Bu singari ma'nosi mavhumlashgan turg'un so'z birikmalarida idiomatizm quyidagi ikki reja asosida namoyon bo'ladi: a) leksik, b) grammatik.

Leksik idiomatizm jarayonida grammatik yo'nalishdagi birikma o'z mustaqilligini to'liq saqlaydi. So'zning birinchi komponenti nominativ rejada emas, konstruktiv unsur modeli, qismi sifatida modal, zamon yoki tur kabi grammatik ma'nolarni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Grammatik idiomatizm so'z birikmasi komponentlaridagi mustaqil boshlang'ich grammatik ma'noning yo'qotilishi bilan nihoyasiga yetadi. O.I.Moskalskayaning fikricha, grammatik va leksik idiomatizm grammatikalizasiyalangan turg'un so'z birikmasi paydo bo'lishining zaruriy sharti emas. Chunki u turg'un birikmalar grammatikalizasiyasining ilk nuqtalarida ishtirok etmaydi. O.I.Moskalskayaning mazkur maqolasi so'z birikmalari emas, balki turg'un so'z birikmalari – frazeologik birliklar grammatikalizasiyasining o'ziga xos hususiyatlari tahlil etilganligi bilan diqqatga sazovordir.

V.N.Koduxov so'z birikmalari xususida fikr yuritar ekan, eng avvalo, so'z birikmalarining erkin va turg'un turini ajratadi. Frazeologizmlarning turg'un so'z birikmasini taqozo etishini ko'rsatib, ularning bir-biridan o'zaro farqli jihatlarini ko'rsatib bergan.

O'zbek tilshunosligida frazema masalasidagi umumiy qarashlar jahon va rus tilshunosligidagi shu muammoga doir qarashlardan qariyb farq qilmaydi. Koreys tilshunosligida esa mazkur masala yuzasidan bildirilgan umumiy fikrlar bir xil, biroq farqli jihati ham ko'zga tashlanadi. Koreys tiliga oid biz o'rganib chiqqan ilmiy adabiyotlarda asosan erkin so'z birikmasining leksik-semantik tomonini tahlil etishga e'tibor qaratilgan, uning grammatik tabiati xususidagi fikrlarga duch kelmadik.

1.3-§ Koreys va o'zbek tillarida erkin va turg'un so'z birikmalarining o'zaro farqi.

So'z birikmasi ikki va undan ortiq mustaqil leksemaning o'zaro sintaktik vositalar yordamida aloqaga kirishuvidan tashkil topadi. Gap tarkibidagi ikkinchi darajali bo'laklarning hokim bo'lak bilan bog'lanishidan so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bunday bog'lanish predikativ bo'lmagan aloqa hisoblanadi: **Tashqarida lopillab laylakqor yog'ardi** (Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar. 1-jild, 316-bet). Bu gap **tashqarida yog'ardi, lopillab yog'ardi** shaklidagi so'z birikmalaridan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har qanday nopredikativ bog'lanish so'z birikmasining paydo bo'lishiga zamin yaratmaydi. Zero, so'zlarning bog'lanishi erkin bo'lishi, nutq jarayonida vujudga kelishi yoki bu bog'lanish turg'un bo'lib, nutqqa tayyor holda olib kirilishi mumkin. Shu sababli so'zlarning predikativ bo'lmagan bog'lanishi ikki guruhga ajratiladi:

- 1) erkin bog'lanish yoki erkin so'z birikmalari;
- 2) turg'un bog'lanish yoki turg'un so'z birikmalari (frazelogizmlar).

So'z birikmasida so'zlar o'zaro erkin bog'langan bo'ladi, tushuncha anglatadi, turg'un bog'lanma (ibora)larda esa so'zlar ma'noviy butunlik uchun birlashgan, yaxlitlashgan bo'ladi va bir leksik ma'no anglatadi.

Turg'un bog'lanma (ibora)ga bir so'z sifatida qaraladi, lug'atlarda so'zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so'zlar kabi ma'no ifodalaydi:

마음을 먹다 - ich- etini yemoq iborasi -xavotir olmoq

전 열심히 운동해서 살을 빼기로 마음을 먹었어요.

Men g'ayrat qilib sport bilan shug'ullanib ozish uchun ich-etimni yedim.

눈이 익다 - ko'zga issiq ko'rinmoq - tanish ko'rinmoq

사라를 처음 만났을 때 얼굴이 참 눈에 익었어요.

Sarani ilk bora ko'rganimda yuzi ko'zimga issiq ko'ringandi.

Ma'nolarini beradi, ammo bu ma'nolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.

So'z birikmasidagi so'zlarni erkin bog'langani uchun almashtirish mumkin, turg'un bog'lanma(ibora)lardagi so'zlarni almashtirib bo'lmaydi, ular bir ma'no ifodalash

qonuniyati asosida turg'unlashgan, yaxlitlangan bo'ladi.

So'z birikmasi va turg'un bog'lanma gapda o'xshash shaklda uchrashi mumkin,

lekin biri tushuncha, biri leksik ma'no ifodalaydi:

Hozirgina qizcha ushlab olgan tog' kapalagi uchib ketdi.

저금 전에 여자가 잡은 산 나비가 나라갔습니다.

Bolasining kasal holda yotishini ko'rib kapalagi uchib ketdi.

아들의 아프게 늙은 것을 보고 두려워했습니다.

Koreys tilida ham iboralar anchaginani tashkil etadi, ularning ba'zilari:

다음 주부터 담배를 끊기로 마음을 먹었어요.

O'tgan haftadan boshlab chekishni tashlayman deb ich-etimni yedim.

마음을 잡다, 마음 잡다.

Ko'nglini xotirjam qilmoq, ko'ngli xotirjam bo'lmoq.

이제 마음을 잡고 공부할 거예요.

Endi ko'nglimni xotirjam qilib o'qiyman.

마음을 놓다- ko'ngli tinch bo'lmoq

걱정하지 않다 - xavotir olmaslik.

내일은 쉬는 날이니까 오늘은 마음 놓고 놀시다.

Ertaga dam olish kuni bo'lgani uchun bugun xavotir olmasdan dam olamiz.

눈이 높다 - nozik tabiatli, dimog'dor

민지는 눈이 높아서 영화배우 같은 남자를 좋아해요.

Minji dimog' nozik tabiatli bo'lgani uchun kino aktyorga o'xshagan yigitlarni yaxshi ko'radi.

제 동생은 눈이 높아서 최고급 물건만 사요.

Ukam nozik table bo'lgani uchun faqat asl narsalarni sotib oladi.

남자 친구가 눈이 높는데 어떤 선물을 주면 좋아할까요?

Yaxshi ko'rgan yigitim nozik tabiatli bo'lgani uchun qanaqa sovg'a bersam bo'larkana?

Sarani ilk bora uchratgan paytimda yuzi ko'zimga issiq ko'ringandi.

입이 무겁다. oog'izga mahkam bo'lmoq

저는 입이 무거우니까 걱정하지 말고 말해 보세요.

Men og'zimga mahkam bo'lanim uchun xavotir olmasdan gapiravering.
입이 무겁고 신중한 사람이 좋아요.

Og'ziga mahkam bo'lib sir saqlay olgan odam yaxshi.

입이 가볍다 - og'zi bo'sh

입이 가벼운 사람과 이야기할 때는 조심하세요.

Og'zi bo'sh odam bilan gaplashgan paytda ehtiyot bo'ling.

입을 모으다 - og'zi ko'pirmoq, maqtamoq.

민지는 부지런해서 모든 사람들이 입을 모아 칭찬해요.

Minji mehnatkash bo'lgani uchun hamma odamlar og'zi ko'pirib maqtashadi.

귀가 얇다. ishonuvchan, ko'ngli bo'sh

제니 씨는 귀가 얇아서 남의 말을 잘 믿는다.

Jeni ishonuvchan bo'lgani uchun yigitlarga ko'p ishonadi.

그걸 믿어요? 참 귀가 얇군요.

Shunga ishonasanmi? Rosa ishonuvchan ekansanda.

귀가 어둡다 - qulog'i og'ir

할머니께서는 귀가 어두워서 제 말을 잘 못 들으세요.⁵

Buvingning quloqlari og'ir bo'lgani uchun mening gapimni yaxshi eshita olmaydilar.

Erkin so'z birikmalari sintaksisning, turg'un so'z birikmalari esa frazeologiya bo'limining tekshirish obyekti hisoblanadi. Frazema erkin so'z birikmalaridan o'z grammatik qurilishi bilan farqlanmaydi. Ammo grammatik qurilishning mohiyati va birikmaning semantikasi jihatidan farqlanish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bundan kelib chiqadiki, erkin so'z birikmalari tarixan turg'un birikmalarning shakllanishi uchun asos vazifasini o'tagan. Ya'ni erkin so'z birikmalari tarkibidagi so'zlar ma'nosi butunlay o'zgargan yoki qismlaridan birining ko'chma ma'nosi asosida hosil bo'lgan. So'z birikmasi va frazema gapda o'xshash shaklda uchrashi mumkin, lekin ularning biri tushuncha, ikkinchisi leksik ma'no ifodalaydi: **qo'lidagi kapalagi uchib ketdi – ahvolini ko'rib kapalagi uchib ketdi.**

⁵ <http://koreanbooks.ucoz.ru>.

Sintaktik soʻz birikmalari frazeologik birliklardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Sintaktik soʻz birikmalarini tashkil qilgan qismlar erkin bogʻlangani uchun, ularni kengaytirish mumkin. Ularning tarkibi ajratilganida ham oʻz leksik maʼnolarini saqlaydi va boshqa soʻzlar bilan bogʻlanib yangi-yangi birikmalar hosil qilishda ishtirok etaveradi. Frazemalarda bunday xususiyat yoʻq, u yaxlitligicha leksik birlik hisoblanadi: tarkibidagi soʻzlar oʻz maʼno mustaqilligiga ega boʻlmaydi: **tarvuzi (nimasi?) qoʻltigʻidan (qayeridan?) tushdi (nima qildi?) – tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi (nima qildi?)**

2. Erkin soʻz birikmalarini bir tildan ikkinchi har qanday tilga toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish mumkin. Bunda mazmunda hech qanday oʻzgarish boʻlmaydi. Frazeologik birliklar bir tildan boshqasiga tarjima qilinganida esa buning aksiga guvoh boʻlamiz. Chunki frazemalar koʻchma maʼnoli birikma yoki gapdan tarkib topganligi sababli, ularni nafaqat begona tillar, baʼzan hatto qarindosh tillarga ham soʻzma-soʻz tarjima qilishning qariyb iloji yoʻq.

3. Erkin soʻz birikmalari nutq birligi, chunki u muayyan tushuncha yoki fikrni bildirish maqsadida nutq jarayonida tuziladi va fikr anglatilgach, u xotirada bir butun holda saqlanib qolmaydi. Frazema esa har safar nutq jarayonining oʻzida tashkil topmay, balki ungacha yaxlit holga kelgan boʻladi: umumlashgan holatda xotirada mavjud boʻladi: Oʻqishdan chiqib uyimizga yoʻl oldim – yaqinda bir voqeaning guvohi boʻlib, hayotda oq bilan qorani ajratadigan, yaxshilik bilan yomonlikning nima ekanligini biladigan kishilar koʻpligini koʻrdim (“Zarafshon” gazetasi, 2011. № 50).

눈을 어둡다: 1) 시력이 어둡다. 2) 욕심 때문에 판 단력이 없어지다.

4. Erkin soʻz birikmalarining tarkibidagi soʻzlar alohida-alohida soʻroqqa javob boʻladi va gapda mustaqil gap boʻlaklari vazifasida keladi. Frazemalar lugʻaviy birlik boʻlgani uchun xuddi soʻzlar singari, gapda bir boʻlak vazifasini bajaradi.

5. Erkin soʻz birikmalarining boshqa soʻzlar bilan kengayish doirasi juda katta, frazeologik birlikda esa soʻzlarning birikuvi doirasi cheklangan boʻladi, unga soʻz qoʻshish yoki tarkibidagi soʻzlarning birortasini chiqarib tashlash umumiy mazmunga

jiddiy ta'sir qiladi. Ushbu o'rinda frazemaning ichki obrazini yanada tushunarli ifodalashga intilish, uning tashqi shaklini takomillashtirish, frazemalarni til vakillarining muayyan ijtimoiy yoki hududiy o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etishga yaqinlashtirish maqsadida ular tarkibi o'zgarishi mumkinligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Bunda frazemalarning mazmuni o'zgarmasa-da, biroq so'z yoki so'z birikmalarining tushib qolishi, almashtirilishi, qo'shilishi asosan frazeologik ma'noning kuchayishiga, obrazning ravshanlashuviga olib keladi: bir kesak bilan ikki quyonni urmoq – bir o'q bilan ikki quyonni urmoq; bo'rk ol desa, bosh olmoq – salla ol desa, bosh olmoq – do'ppi ol desa, bosh olmoq; do'ppisini osmonga otmoq – takiyasini osmonga otmoq.

눈코 뜰 새 없다: 아주 바빠서 시간이 없다.

Ko'z ochib yumishga vaqt yo'q: juda band bo'lgani bois vaqti yo'q. Turg'un so'z birikmalarining ma'no mundarijasi nihoyatda keng. Bunday til hodisalarini, eng avvalo, ikki guruhga ajratish mumkin:

to'g'ri ma'noli turg'un birikmalar;

말씀을드리다._gapiribbermoq

감사를드리다._minnatdorchilikbildirmoq

맛있게드십시오!_yoqimliishtaha

축하를 드립니다-tabriklamoq

ko'chma ma'noli turg'un birikmalar;

피아노를 치다 - pianino chalmoq

처음 뵈겠습니다⁶ - tanishganimdan xursandman

Turg'un bog'lanmalarning har ikki turida ham ma'lum bir voqyelik anglatiladi, lekin birinchisi, uni nomlasa, ikkinchisida ko'chma ma'no, obrazlilik ham qatnashadi.

To'g'ri ma'noli turg'un birikmalar o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

a) sostavli atamalar: elektron-hisoblash mashinasi

b) takroriy konstruksiyalar: husniga husn qo'shib turibdi

Ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar tarkibiga frazemalar kiradi.

⁶ Корейский язык. Сборник статей. – М.: Изд.вост.лит., 1961. – 239 с.

Tilshunoslik tarixida frazemalarning turg'un so'z birikmalari sirasiga kiritilishiga qarshi bo'lgan tadqiqotchilar ham bor. Jumladan, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorovlar tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli asarida bu xususda quyidagi fikrlar bayon etilgan: "Frazeologizmning komponentlari o'zicha shakl va ma'no butunligiga ega emasligidan, ya'ni haqiqiy ma'noda so'z emasligidan frazeologik birliklarga nisbatan "birikma" terminini qo'llash, ularni "turg'un so'z birikmasi" deb atash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki "so'zlarning turg'un birikmasi", "turg'un so'z birikmasi", "turg'un birikma", "turg'un ibora", "birikma" kabi terminlar hodisaning so'z birikmasi ekanligini inkor eta olmaydi, balki tan oladi. Frazeologizmlar esa leksik birlik hisoblanuvchi so'zdan, shuningdek, sintaktik birlik hisoblanuvchi so'z birikmasidan tamomila farqlanuvchi alohida til birligidir. Shuning uchun ham bunday birliklarga nisbatan "frazeologizm" terminining o'zini qo'llayverish ma'qul".

Bizning fikrimizcha, turg'un so'z birikmalari bilan erkin so'z birikmalarini keskin farqlab bo'lmaydi. N.Turniyozovning fikricha, "...Turg'un so'z birikmalarining ba'zi turlari (masalan, omonat kassasi, mehnat daftarchasi, vazirlar mahkamasi) na leksikologiyada, na morfologiyada, na sintaksisda va na frazeologiyada o'rganiladi. Ularning leksikologiyada yoki morfologiyada o'rganilmasligi sababi birikma tarkibida birdan ortiq so'zlarning mavjudligi bo'lsa, sintaksisda o'rganilmasligining sababi birikma unsurlarining o'zaro aloqasi turg'un ekanligidir. Shuningdek, bunday birikmalar frazeologik tadqiqotlarda ham nazardan chetda qolib kelmoqda. Chunki, birikma unsurlari ko'p hollarda yolg'iz bir mazmun ifodasini bermaydi. Aslida esa frazeologik iboralar ham turg'un so'z birikmalarining bir turidir"

II BOB. O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARNING BOSH BO'LAKLAR BILAN BIRIKISH O'RNI

Koreys tilida gap bo'laklarining tuzilishi o'zbek tili bilan deyarli o'xshashdir. Ushbu tillarda ega gapning boshida kelishi, undan keyin to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol kelishi umumiy holatdir. Kesim esa har ikki tilda ham gapning oxirida keladi.

Koreys tilida gap ega 주어, kesim 서술어, to'ldiruvchi 목적어, aniqlovchi 관형어, hol 부사어 va bog'lama 보어 dan iborat. Bundan tashqari ushbu bo'laklar bilan bog'lanmaydigan, mustaqil gap bo'lagi undalma 독립어 ham mavjuddir. Ega va kesim bosh bo'lak hisoblanib, qolgan bo'laklar esa ikkinchi darajali bo'laklardir.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklarga tobe bo'lib, ularni to'ldirib, aniqlab, izohlab keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar 3 xil: **to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.**

관형어 Aniqlovchi, uning turlari va ifodalanishi

Gapdagi biror bir bo'lakni belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo'lak **aniqlovchi** deyiladi. Koreys tilida aniqlovchi egadan oldin kelib uning xususiyati, holatini aniqlab keladi. Aniqlovchi gapda ifodalanmasa ham gap mazmuni unchalik darajada o'zgarmagani uchun, gapda aniqlovchi ifodalanmaydigan holatlar ham bo'ladi.

가: 민수는 새 자동차를 샀다

나: 민수는 자동차를 샀다.

가: 우리는 이 영화를 좋아한다.

나: 우리는 영화를 좋아한다.

가: 그 학생은 훌륭한 학자가 되었다.

나: 그 학생은 학자가 되었다.

가 misollardagi tagiga chizilgan so'zlar aniqlovchi bo'lib, 나 misollarda ushbu aniqlovchilarsiz ham gapdagi asosiy mazmun o'zgarmaganini ko'rish mumkin.

Lekin har doim ham aniqlovchi tushib qolsa, gapdagi mazmun o'zgarmasdan qolaveradi desak yanglishgan bo'lamiz. Shunday gaplar borki unda egadan oldin aniqlovchi albatta bor bo'lishi kerak.

가: 깊은 것이 아름답다.

나: () 것이 아름답다.

가: 그 외에 다른 것은 필요없다.

나: () 외에 다른 것은 필요없다.

가: 나는 낮은 적이 없다.

나: 나는 () 적이 없다.

Ushbu misollardagi tagiga chizilgan so'zlar aniqlovchi hisoblanib, 나 misollarda ular tushirib qoldirilsa, gapdagi mazmun to'g'ri yetkazilib berila olmasligini anglasak bo'ladi.

어떤 말들이 관형어가 될 수 있을까? Qanday so'zlar aniqlovchi bo'la oladi?

관형어-sifatdosh

관형사-sifat

명사-ot

명사. 대명사. 수사 + '의'

동사. 형용사의 관형사형

관형사절

가. 철수는 새 집으로 이사를 했다.

나. 어제 첫 눈이 왔다

다. 전 식당이 음식 값이 싸다.

라. 준수에게서 전화를 한 통 받았다.

마. 어제 웬 여자가 너를 찾아왔더라.

가. 어제 고향 친구들을 만났다.

나. 마이클은 외국 학생이다.

가. 저 집이 철수의 집이다.

나. 서울의 지하철은 무척 편리하다.

가. 아기의 잡든 얼굴은 참으로 편화롭습니다.

나. 이 선생님은 항상 웃는 얼굴로 학생을 맞이하십니다.

다. 기다리던 아들 소식에 어머니는 기쁜 표정을 지었다.

가. 준호가 가장 좋아하는 운동은 야구이다.

나. 민수는 잃어버린 지갑을 다시 찾았다.

다. 영화는 철수가 자신을 좋아한다는 것을 알았다.

Aniqlovchi gap ichida har doim **otga** yoki **otlashgan** so'zga bog'lanadi: *Mayda qor yog'yapti. Qovunnig og'iri, tarvuzning yengili shirin bo'ladi.*

Aniqlovchi gap ichida egaga ham, kesimga ham, to'ldiruvchiga ham, holga ham tobe bo'la oladi. *Oppoq mashina keng ko'chada navbatdagi chorrahani kesib o'tmoqda edi. Toshkent juda chiroyli shahar.*

Aniqlovchi ikki xil bo'ladi:

1. Sifatlovchi-aniqlovchi predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va *qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qayerdagi?* kabi so'roqlariga javob bo'ladi.

Sifatlovchi-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **sifatlanmish** deb yuritiladi.

Sifatlovchi va sifatlanmish **bitishuv** yo'li bilan bog'lanadi: *Notanish kishi Shahnozaga qaradi.*

생소한 사람이 샤희노자에 봤습니다.

Sifatlovchi-aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1.Sifat bilan: Biz *serjun* qo'ylarni ko'paytiraymiz.

우리는 털이 많은 양을 증가하고있어요.

2.Ot bilan: *Asfalt* yo'ldan mashinalar yurayapti.

아스팔트 길에서 차들이 가고 있어요.

3.Son bilan: *Yuzta* daftar sotib oldi.

공책 백 권을 샀어요.

4.Olmosh bilan: *Bu* kitob meniki.

그는 나의 책 입니다.

5.Sifatdosh bilan: *O'qigan* odam hayotda qiynalmaydi.

공부한 사람은 세상에서 힘들지않습니다.

6.Ravish bilan: *Ko'p gapning ozi yaxshi, kam gapning o'zi yaxshi.*

많은 구의 조금이 좋습니다, 조금 구의 자신이 좋습니다.

7.Modal so'z bilan: *Bor uyda bol tomadi.*

있는 집에 꼴이 내립니다.

Qaratqich-aniqlovchi biror narsa tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradi va *kimning? nimaning? qayerning?* So'roqlariga javob bo'ladi. Qaratqich-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **qaralmish** deb yuritiladi. Qaratqich va qaralmish **moslashuv** orqali birikib, shaxs va sonda albatta moslashgan bo'ladi: *Odamning (3-shaxs) qo'li (3-shaxs) gul.*

Qaratqich-aniqlovchi, odatda, quyidagicha ifodalanadi:

1.Qaratqich kelishigidagi ot bilan: *Gulnor yigitning so'zlarini diqqat bilan tingladi.*

굴르너리는 남자의 말을 주의로 들었습니다.

2.Qaratqich kelishigidagi olmosh bilan: *Bu bizning yangi maktabimiz*

그는 우리의 새 학교 입니다.

3.Harakat nomi bilan: *O'qishning qiyinchiligi ham bor.*

공부의 어려움이 도 있습니다.

Otlashgan so'zlar bilan:

4.Otlashgan sifat bilan: *boyning ko'p puli bor.*

풍부한 사람의 많기 돈이 있습니다.

5.Otlashga son bilan: *O'ning yarmi - besh.*

열의 절반이 다섯 입니다.

6. Otlashgan sifatdosh bilan: *ketar kishiga yo'l yaxshi.*

가는 사람 위해 길이 좋습니다.

7. Otlashgan ravish bilan: Ko'pning haqiga xiyonat qilmang.

많은 사람의 요금에 배신하지마세요.

8. Ibora bilan: Og'zi bo'shning ichida gap yotmas.

입이 가벼운 사람의 비밀이 없습니다.

Qaratqich-aniqlovchi **-ning** qo'shimchasisiz (belgisiz) ham qo'llanadi:

Bolalar xonasi ozoda .

아이들의 교실이 깨끗합니다.

Shunday qilib o'zbek tilidagi ayrim so'z birikmalarining qo'shimchasisiz, ya'ni belgisiz qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin, lekin koreys tilida bunday belgisiz qo'llanilish mavjud emas, har doim barcha qo'shimchalarni o'z o'rni bilan ishlatish lozimdir.

To'ldiruvchi, uning turlari va ifodalanishi

Gapdagi biror bo'lakni to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan tobe holatda bog'langan bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi. To'ldiruvchi asosan fe'l-kesimga bog'lanadi.

2. 목적어 To'ldiruvchi

주어	목적어	서술어
그가	<u>편지를</u>	쓴다.
U	<u>xatni</u>	yozadi.
수라요가	<u>안바르를</u>	사랑한다.
Surayyo	<u>Anvarni</u>	yoqtiradi.

Koreys tilida to'ldiruvchi kesimga bog'lanib kelib "kimni", "nimani" so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlardir.

가: 너는 무엇-을 좋아하니?

Sen nimani yaxshi ko'rasan?

나: 나는 사과-를 좋아해.

Men olmani yaxshi ko'raman.

Bu misollardagi tagiga chizilgan so'zlar to'ldiruvchidir.

목적어는 어떻게 표시될까? To'ldiruvchi qanday ifodalanadi?

To'ldiruvchi ot yoki ot o'rnida keluvchi so'z yoki so'z birikmalariga tushum kelishigi 목적조사 qo'shimchasi '을/를' ni qo'yish bilan hosil bo'ladi.

가: 민수는 음악-을 좋아한다.

나: 영미는 민수-를 사랑한다.

Tagiga chizilgan so'zlar tushum kelishigi qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'lgan to'ldiruvchilardir.

Tushum kelishigi ikki xil bo'lib, agar otga oid so'z undosh bilan tugasa '을' qo'shilib, otga oid so'z unli bilan yakunlansa '를' qo'shimchasi qo'shiladi.

가: 민규는 축구는 좋아하지만 야구는 싫어해.(0)

나: 나는 과일은 조하한다.

가: 민규는 축구를 좋아하지만 야구를 싫어해.(x)

나: 나는 과일을 좋아한다.(x)

목적격조사 없이 목적어를 표시할 수 있을까? Tushum kelishigi qo'shimchasisiz ham to'ldiruvchi ifodalanishi mumkinmi?

가: 물 좀 마셔야겠다.

Biroz suv ichishim kerak.

나: 돈 좀 빌려 줘.

Biroz pul berib tur.

Misollardagi 물, 돈 so'zlari to'ldiruvchi bo'lib, ular tushum kelishik qo'shimchasisiz ifodalangan. Gapdagi mazmunga qarab to'ldiruvchi qaysi so'z ekanligi aniq bo'lgan hollarda tushum kelishigi ko'pincha so'zga qo'shilmadan keladi. 어떤 말들이 목적어가 될 수 있을까? **Qanday so'zlar to'ldiruvchi bo'la oladi?**

To'ldiruvchi ot yoki ot o'rnida keluvchi so'zlarga tushum kelishik qo'shimchasi '을/를' qo'shish bilan yasaladi.

가: 사람들이 택시를 기다른다.

나: 현주가 그를 사랑한다.

다: 나는 영화 보기를 좋아한다.

Ot so'zlardan tashqari olmosh, harakat nomi kabilar bilan ham to'ldiruvchi ifodalanishi mumkin. Yuqoridagi misollardagi kabi olmosh '그' va harakat nomi '보기' ga tushum kelishigi '을/를' ni qo'shish orqali to'ldiruvchi hosil bo'lgan.

Bundan tashqari belgisiz qaratqichli birikma bilan ham to'ldiruvchi hosil bo'ladi:

가: 그들은 내가 돌아오기를 바란다.

Ular men qaytishimni istashardi.

나: 그는 자신이 잘못했음을 알고 있다.

U o'z xatosini anglardi.

목적어는 문장에서 어디에 위치할까? **To'ldiruvchi gapning qayerida keladi?**

Koreys tilida odatda to'ldiruvchi o'timli fe'l bo'lgan kesim 타동사 ning oldida keladi.

주어 목적어 서술어 (타동사)

가: 민수가 영미를 만났다.

Minsu Yongmini uchratdi.

나: 안바르가 편지를 쓴다.

Anvar xatni yozadi.

Ushbu misollarda to'ldiruvchi 영미를 va 편지를 o'timli fe'l bo'lgan kesim 쓴다 va 만났다 oldida kelgan.

Lekin gapdagi urg'u tushgan bo'lakka qarab to'ldiruvchi o'z joyini o'zgartirishi ham mumkin.

가: 편지를 민수가 쓴다.

나: 쓴다, 민수가 편지를.

다: 편지를 쓴다, 민수가.

라: 쓴다, 편지를 민수가.

Koreys tilida to'ldiruvchini ifodalaydigan tushum kelishigi mavjud bo'lganligi uchun yuqoridagi misollarda to'ldiruvchi o'z o'rnini almashtirib kelgan. Bunda joyi alishsa ham asosiy ma'no deyarli o'zgarmagan.

Lekin bu holatda yuqoridagi barcha misollarda ma'no bir xil desak bo'lmaydi. 가 va 나 misollari ko'p foydalanilsa ham, 다 va 라 dagi misollar kamdan-kam holatda qo'llanadi.

주어 목적어 + (으로) 서술어 (타동사)

가: 그는 나를 바보로 본다. (0)

나: 그는 바보로 나를 본다.(x)

가: 나는 그 아이를 아들로 삼았다.(0)

나: 나는 아들로 그 아이를 삼았다.(x)

가: 그는 훌륭한 교수로 만들었다.(0)

나: 그는 훌륭한 교수로 아들을 만들었다.(x)

떡적어는 언제 생략될까?

가: 우리는 두 시간 동안 보았다(x)

나: 철수가 집으로 보냈다.(x)

선생님이 먼저 노래를 부르자, 아이들이 따라 부르기 시작했다.

가. 민수: 너 그 영화 봤니?

나.영호: 응, 봤어.

가. 선생님: 너, 내가 준 책 읽었니?

나. 영미: 네, 읽었어요.

가: 나는 민수를 팔을 잡다왔.

나: 민수는 집을 욕실을 수르했다.

다: 차를 너무 비싼 것을 샀구나!

라: 영미는 자장면을 세 그릇을 주문했다

To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi:

Vositasiz to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat bevosita o'ziga o'tgan shaxs yoki predmetni bildiradi va *kimni? nimani? qayerni?* so'roqlariga

javob bo'ladi. Bu to'ldiruvchi harakatni butunlay o'ziga qabul qilgan predmatni bildirib quyidagicha ifodalanadi:

1.ot bilan: *Yosh qo'shiqchilar ashulani zavq bilan aytadilar.*

젊은 가수들이 노래를 황홀로 부릅니다.

2.olmosh bilan: *Sizni chaqirishyapti.*

당신을 부르고 있어요.

Otlashgan so'zlar bilan:

Otlashgan sifat bilan: *Yaxshini maqtasang yarashadi.*

Otlashgan son bilan: *Uchni uchga ko'paytiring.*

Otlashgan sifatdosh bilan: *Bo'linganni bo'ri yer.*

Otlashgan ravish bilan: *Ko'pini sizdan o'rgangan.*

Otlashgan taqlid so'z bilan: *Etigining g'arch-g'urchini eshitdi.*

Otlashgan undov so'z bilan: *Oh-havoni hech kim eshitmasin.*

Otlashgan modal so'z bilan: *Borini sarfladi.*

Ibora bilan: *O'ziga bironing oz-moz til tegizishini ko'tarmasdi.*

So'z birikmasi bilan: *Sen ko'rganni u ham ko'rgan.*

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishik qo'shimchasisiz ham qo'llanadi:

O'quvchilar hozir kitob o'qishyapti

Vositasiz to'ldiruvchi ba'zan tushum kelishigiga almashtirsa bo'ladigan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanadi, bunda u harakatni qisman o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi: *Qani, oshdan oling!*

Vositali to'ldiruvchi *kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim haqida?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

Ot bilan: *Xatni qalamda yozdi.*

편지를 연필로 썼어요.

Olmosh bilan: *Ravshan senga gapirdi.*

라브샤느 너에게 마했어요.

Otlashgan so'zlar bilan:

a)Otlashgan sifat bilan: *Yaxshiga yondosh, Yomondan qoch.*

- b) Otlashgan son bilan: Beshdan ikkini ayirish kerak.
- d) Otlashgan sifatdosh bilan: Aytganimga ko'nishmadi.
- e) Otlashgan ravish bilan: Kamiga uzr so'raymiz .
- f) Otlashgan taqlid so'z bilan: Zambaraklarning gumbur-gumburiga quloq soldi.
- g) Otlashgan undov so'z bilan: Uning dod - voyiga quloq solmadi.
- h) Otlashgan modal so'z bilan: Boriga shukur qilish kerak.
- I) Ibora bilan: Og'zi bo'shga ishonib bo'lmaydi.
- J) So'z birikmasi bilan: Kecha kelmaganlar xabar berish kerak.

부사어 Hol, uning turlari va ifodalanishi

Ko'pinch fe'l-kesimga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak hol deb ataladi: Yomg'ir to'xtovsiz yog'yapti. - 비가 중지하기 없는 내리고 있어요.

Hol ba'zan ot-kesimga ham bog'lanadi: Ko'chada odam ko'p.

Hol ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1.vaziyat (ravish, tarz) holi qanday? qay holda? qay tarzda? kabi so'roqlariga ajvob bo'ladi va har doim fe'lga bog'lanadi. Vaziyat hollari, ravish, ravishdosh, ot, sifat, olmosh, taqlidiy so'zlar, ibora bilan ifodalanadi: U diqqat bilan tingladi. Ukam chiroyli yozadi. U shoshmasdan jo'nadi. Rais bilan ikkisi do'stlarcha xayrlashdi. U qorovul bo'lib turdi. Daraxt barglari duv to'kildi. Buni qanday bajarasiz? Boshini eggan holda kelardi.

Ko'makchilar yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchilar bilan xuddi shu ko'rinishda shakllangan vaziyat hollarni savollariga qarab farqlanadi: Paxta mashina bilan terildi (nima bilan? – to'ld.). Paxta havas bilan terildi (qanday? - hol).

Ravishdosh bilan ifodalangan vaziyat holi o'ziga tobe bo'lgan bo'laklar bilan so'z birikmasini hosil qilishi mumkin: Eshikni sekin ochib, ichkariga qaradi. Bu **yoyiq vaziyat holi** deb ataladi.

2.o'rin holi qayerga? qayerda? qayoqqa? qayerdan? kabi so'roqlarga

javob bo'ladi va ko'pincha o'rin ravishi, ot, olmoshlar bilan ifodalanadi: Bolalar ko'chaga chiqib ketishdi. U orqadan qochdi. Bunda bulbul kitob o'qiydi... (H. O) Jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigidagi so'zlar ham hol,

ham to'ldiruvchi bo'lib keladi, bunda ular savolga qarab farqlanadi: U maktabga bordi (qayerga? - hol). Menga gapirdi (kimga? – to'ld.).

3. payt holi qachon? qachongacha? qachondan beri? Qay vaqt? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha ot, payt ravishi, olmosh, payt ravishdoshi, sifatdosh, harakat nomi, son, sifat bilan ifodalanadi: Imtihonlar yozda bo'ladi. Bugun maktabim yonodan o'tdim. Shunda men bir sapchib tushganman. Nafasimni rostlagach tikilibroq qaradim. O'qiyotganimda buni sezib qoldim. Qaytishda siznikiga kirib o'tamiz. Qo'lim bo'shida o'qiyman. Yig'ilish uchda bo'ladi.

4.miqdor holi qancha?, qanchalab?, nechalab?, necha marta? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha miqdor – daraja ravishlari, son, sifat va miqdor-daraja ma'nosini biladigan so'z birikmalari bilan ifodalanadi: Men juda ko'p qayg'urdim. O'n marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal. Bir onda o'z kuchining o'lchivsiz darajada o'sganini sezdi. Siz qancha terdingiz? Bular qop-qop terib qo'yishdi. Men o'ylagan darajada qilisharmikan?

5.sabab holi nima sababdan? nima sababli? nima uchun? nimga? nega? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

a)sabab ravishi bilan: Otasi noiloj ko'ndi.

b)–lik, -siz+ lik, -gan+lik qo'shimchali chiqish kelishigidagi otlar, sifatdoshdan keyin -dan qo'shimchasini keltirish bilan: Salima opa quvonganida hech gapira olmas edi.

d)–gani, -ganligi qo'shimchali so'zlardan keyin sababli, tufayli, uchun so'zlaridan birini keltirish bilan: U o'qimagani uchun bilmadi.

6)maqsad holi- nima maqsadda? nima uchun? nima qilgani? nima qilgali? nega? so'roqlariga javob bo'lib quyidagicha ifodalanadi:

f)maqsad ravishi bilan: Men atayin gapirmadi.

g)jo'nalish kelishigidagi harakat nomi yoki harakat nomidan keyingi uchun ko'makchisini keltirish bilan: U o'qish uchun keldi.

h)maqsad ravishdoshi bilan: U o'qigani keldi.

I)fe'ldan so'ng uchun, deb so'zlarini keltirish bilan: O'qiyman deb keldi.

J)Harakat nomidan keyin maqsadida, maqsadda, maqsadi bilan so'zlarini keltirish yordamida: Gulnor opa bafurja gaplashish maqsadida keldi.

k)shart holi nima qilsa(-m, -ng, -k, -ngiz) so'rog'iga javob bo'ladi va bir harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan ish-harakatni bildiradi: Eksang o'rsan. Qaytarish sharti bilan oldi.

l)To'siqsizlik holi nima qilsa? (-m, -ng, -k, -ngiz) ham//-da?

So'roqlariga javob bo'lib, bir ish harakatning bajarilishi uchun to'siq bo'la olmaydiga ish-harakatni bildiradi va shart fe'li+ham//-da, ravishdosh, sifatdosh+bilan ko'makchisi, qaramay, qaramasdan so'zlari qatnashgan qurilma orqali ifodalanadi: Chaqirilmasa ham qatnashdi. Kichik bo'lgani bilan ancha og'ir edi. Shoshganiga qaramay kutib turdi.

가. 철수는 시험 결과를 조용히 기다렸다.

나. 그 식당은 음식 값이 무척 비싸다.

다. 철수는 밥을 아주 빨리 먹었다.

라. 순이는 매우 예쁜 아이이다.

가. 철수는 시험 결과를 () 기다렸다.

나. 그 식당은 음식 값이 () 비싸다.

다. 철수는 밥을 () 빨리 먹었다.

라. 순이는 () 예쁜 아이이다.

어떤 만들이 부사어가 될 수 있을까?-

부사어	서술어, 부사어
부사	동사
동사, 형용사의 부사형	형용사
명사 + 조사	부사

가. 날씨가 무척 더웠다.

나. 미수는 이상하게 걷는다.

다. 바같이 잘 보이도록 문을 활짝 열어라.

라. 영희는 철수의 합격을 진심으로 바란다.

마. 마이클은 항상 적극적으로 행동한다.

부사어는 문장에서 어디에 위치할까?-hol gapning qayerida keladi?

가. 민수는 영화를 무척 좋아한다.

나. 민수는무척 영화를 좋아한다.

필수적 부사어란 무엇일까?

가. 이것은 저것과 다르다.(○)

나. 기영이는 아빠와 닮았다.(○)

가. 이것은() 다르다.(x)

나. 기영이는 () 닮았다.(x)

가. 미수는 설문을 그녀에게 주었다. (○)

나. 나는 민수를 친구로 삼았다. (○)

다. 영미는 편지를 우체통에 넣었다. (○)

라. 그 학생은 서울에서 산다. (○)

가. 미수는 설문을 () 주었다. (x)

나. 나는 민수를 () 삼았다. (x)

다. 영미는 편지를 () 넣었다. (x)

라. 그 학생은 () 산다. (x)

필수적 부사어: ‘명사 + 와/과’, ‘명사 + 에게’, ‘명사 + (으)로’, ‘명사 + 에서’, ‘명사 + 에’

가. 민수는 영미와 서점에 갔다.(○)

나. 나는 어제 일에 대해 그에게 진심으로 사과했다.(○)

다. 마이클은 오후에 방송국에 갔습니다.(○)

라. 영미는 어제 백화점에서 옷을 한 벌 샀습니다.(○)

가. 민수는 () 서점에 갔다.(x)

나. 나는 어제 일에 대해 그에게 () 사과했다. (x)

다. 마이클은 () 방송국에 갔습니다. (x)

라. 영미는 어제 () 옷을 한 벌 샀습니다. (x)

가. 모든 사람이 그 거지를 불쌍히 여긴다.(○)

나. 김 대리는 상사들에게 함부로 군다.(○)

가. 모든 사람이 그 거지를 ()여긴다.(x)

나. 김 대리는 상사들에게 ()군다.(x)

Ayrim darsliklarda holning yana bir turi ajratiladi: qurol-vosita holi. Bu hol nima bilan? qanday usul bilan? degan so'roqlarga javob bo'ladi: Xat qalamda (qalam bilan) yozilgan edi.

보어 Bog'lama

주어	보어	서술어
고래가	물고기가	아니다.
동생은	대학생이	되었다.

2.1 -§. O'zbek va koreys tillarida erkin so'z birikmalarining semantik xususiyatlari

Moslashuv tarzida birikkan quyidagi gaplarda :

Chinorning gapirganini eshitgan kishi uzoq umr ko'rarmish(A.Muxtor)

Qishloqning qariyalari chinorning yoshini hisobladilar(A.Muxtor)

bu misollarga *nimaning gapirganini?*, *nimaning yoshini?* kabi savol berib ko'rish orqali qaratqich aniqlovchi tarzidagi moslashuvli birikmani ko'rishimiz mumkin. Qaratqichning qo'llanilishi yoki qo'llanmay tushib qolishida semantik farqlar mavjud. Shunisi aniqki, *-ning* qo'shimchasining qo'llanish hollaridagi semantika – aniqlik, individual xoslik yoki qarashlilik ma'nosi juda ravshan bo'ladi, qolgan hollarda faktlarni ba'zan tushuntirish ancha murakkabdek ko'rinadi(kishilik olmoshlari, atoqli otlar albatta belgili qaratqichda qo'llaniladi.) lekin nutq sharoiti , kontekst ham *-ning* affiksini qo'llashda juda muhim rol o'ynagandek tuyuladi:

*odamning jahlini chiqarma va nega birovning bolasini haqorat qilasan?*kabi jummalarda xuddi ana shu vaziyat , nutq sharoiti ko'zda tutiladi.

Ot boshqaruvi ot boshqaruvi deganda tilshunoslikda asosan ot ,sifat, son, ravish kabi so'z turkumlariga taalluqli so'zlar boshqaruvi nazarda tutiladi. Boshqaruvchi so'zning qaysi so'z turkumiga oid ekanligiga qarab ot boshqaruvini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Jo'nalish kelishigidagi otlarni boshqaruvchi otlar -O'zbek tilida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ga* bilan o'zaro aloqaga kirishadi. Koreys tilida esa bu kelishik qo'shimchasi o'rnida *-에게, -께, -에* kabi qo'shimchalar ishlatiladi.

Do'stingiz**ga** xatni yozing.

친구**에게** 편지를 쓰세요.

Onangiz**ga** sovg'a sotib oldingizmi?

어머니**께** 선물을 샀어요?

Yurtingiz**ga** qachon bormoqchisiz?

고향**에** 언제 가려고합니까?

Chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqaruvchi otlar -Chiqish kelishigi formasidagi so'zlarni otlar ham boshqarib kela oladi, lekin chiqish kelishigidagi so'zlarni kuchli boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan otlar ko'p emasdir. O'zbek tilidagi chiqish kelishigi qo'shimchasi **-dan**, koreys tilida esa *-에서, -한테, -한테서* kabi qo'shimchalardir.

Do'stlarim**dan** tabrik oldim.

친구들**에서** 축하를 받았어요.

Bobom**dan** ertak eshitdim.

할아버지 **한테서** 이야기를 들었어요.

o'rin-payt kelishigidagi otlarni boshqaruvchi otlar- o'rin-payt kelishigidagi so'zlar harakat, voqea-hodisaning ro'y berish o'rnini, predmet yoki belgining mavjudlik joyini bildiradi. O'rin-payt kelishigi o'rin va payt ma'nolaridan tashqari vosita-qurol, belgining qay jihatdan yuzaga chiqish ma'nolarini ifodalaydi.

O'zbek tilida o'rin-payt kelishigi uchun xoslangan qo'shimcha *-da* qo'shimchasidir. Koreys tilida esa *에* va *에서* qo'shimchalaridir. Agar aytilgan o'rin-joyda harakat kuzatilsa- *에서*, harakat kuzatilmasa *-에* qo'shimchasi ishlatiladi.

Kinoteatr**da** odamlar kino tomosha qiladilar.

영화관**에서** 사람들이 영화를 봅니다.

Bizning uyda ko'p kitoblar bor.

우리 집에 많이 책들이 있어요.

Sifat boshqaruvi-Sifat turkumiga oid so'zlar odatda predmet bildiruvchi so'zlarga bog'lanib kelib, predmetning biror belgisini(rang-tusi, mazasi, shakli) anglatadi. Shuning uchun ko'pincha sifatlar otli birikmalarning tobe komponenti vazifasini o'taydi:

qizil qalam- 빨간색 연필,shirin taom- 맛있는 음식, kabi birikmalarning hokim qismi sifat so'z turkumiga oid ekanligini ko'rishimiz mumkin. Sifatlar jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kelishiklaridagi so'zlarni boshqarib keladi.shuningdek ayrim sifatlar ko'makchi bilan birikkan so'zlarni boshqara olish xususiyatiga egadir. Gapirish uchun oson-말하기 위해서 가벼워요.

Odam uchun foydali-사람 위해서 필요합니다.

Jo'nalish kelishigidagi so'zlarni boshqaruvchi sifatlar jo'nalish kelishigida kelgan otning asosiy funksiyasi harakat yo'nalgan obyektini ko'rsatishdir. Bunday birikmalarni hosil qilishda hokim so'z sifat so'z turkumiga oid bo'lishi va shuningdek tobe so'z hokim so'zga -ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi orqali bog'lanishi kerakdir

Dunyoga mashhur-세계에 유명한

Hammaga aniq-모두에 정확한

Chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqaruvchi sifatlar-chiqish kelishigi o'zining ko'p ma'noli bo'lishi bilan boshqa kelishiklardan ajralib turadi. Bu kelishikdagi otlar makon va zamonda harakatning boshlanish, chiqish nuqtasini ko'rsatadi, shuningdek butundan bo'lak, to'dadan qismni ajratib ko'rsatadi, material, sabab, chog'ishtirish kabi xilma-xil ma'nolarni ifodalaydi. Bu birikmani hosil qilish uchun ham hokim so'z sifatdan va tobe so'z -dan chiqish kelishigi qo'shimchasi orqali bog'langan bo'lishi lozimdir.

Yangilikdan xursandman - 소식 때문에 기쁩니다.

ukamdan katta-남동생에서 큼니다.

o'rin- payt kelishigini boshqaruvchi sifatlar- o'rin -payt kelishigidagi ot yoki boshqa so'z turkumi asosan ish-harakatning bajarilishi o'rni va paytini bildirgani uchun ko'proq fe'lga tobelanib keladi. Lekin bu kelishikdagi so'zlar predmetning mavjudlik o'rni, belgining yuzaga chiqish joyi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Lekin

o'rin-payt kelishigini ma'no talabiga ko'ra boshqarib keluvchi sifatlar shu turkumga oid so'zlarning oz qismini tashkil etadi.

Shaharda mashhur - 도시에 유명합니다.

Qishloqda kuchli - 시골에 강합니다.

Misollardagi sifat kesimga tobelanib kelgan o'rin-payt kelishigidagi otlarning barchasi predmet belgisining yuzaga chiqish o'rnini bildiradi va gapda hol vazifasini bajaradi. Bu misollardagi sifat kesimining o'rin holi bilan kengayishi gapning umumiy mazmuni bilan bog'liqdir. Bu kengayish natijasida gapning mazmuni konkretlashadi: *u yolg'iz* gapida fikr tor, noaniq, u *bu yerda yolg'iz* desak, fikr kengayib, konkretlashadi.

Modal so'zlar boshqaruvi- modal so'zlar boshqaruvi ham so'z birikmalari sistemasida muhim o'rinni egallaydi. Modal so'zlardan ayniqsa "bor" va "yo'q" so'zlari ishtirok etgan birikmalarni struktur xususiyati maxsus o'rganishni talab etadi. Bor va yo'q so'zlari o'z ma'nolarida qo'llanganda hokim so'z sifatida jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kelishiklari formasidagi so'zlarni boshqarib kela oladi. Koreys tilida esa bu o'rinda 있다 va 없다 so'zlari qo'llaniladi. Bor va yo'q so'zlari boshqaruvidan hosil bo'lgan birikmalarning asosiy ko'pchiligining tobe qismi o'rin-payt kelishigidagi so'zlardan iborat bo'ladi.

Uyda hech kim yo'q

집에 아무도 없어요.

Modal so'zlardan kerak, lozim, shart, darkor so'zlari uchun ko'makchisi bilan kelgan so'zni boshqara oladi.

Bu biz uchun zarur.

그는 우리위해서 필요합니다.

Undov boshqaruvi- ma'lumki, insonning his-tuyg'usini bildirgan so'zlar undov so'zlar sanalib insonning his-tuyg'usi shaxa yoki hodisaga yo'nalgan bo'ladi. Bularga rasm-rusum ,urf-odat undovlaridan salom,balli,barakalla, tashakkur, rahmat, marhamat, qulluq kabi so'zlar, his-hayajon undovlaridan dod, voy-dod kabi so'zlar kiradi, ular turli formadagi morfemalarni o'zlariga bo'ysundirib kelishlari mumkin.

Do'stinga salomimni yetkazing

친구에게 안부를 전해주세요.

Undovlar shaxs otlarini, kishilik olmoshlarini boshqaradi, chunki undovlar bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan yuzaga kelgan his-tuyg'usini ifodalaydi.

Bitishuv –Bitishuv deganda birikmani hosil qilgan komponentlardan birinchisining bosh so'zga qo'shimchasiz birikuvi tushuniladi. Bitishuv yoli bilan birikkan so'z birikmalari quyidagi holatlarda bo'lishi mumkin:

1.ot+ot. Otli birikmalar sistemasida keng tarqalgan turlaridan biri ikki otning qo'shimchasiz birikuvidir. Ergash qism sistema sifatida birinchi o'rinda, bosh so'z esa ikkinchi o'rinda keladi. Birinchi komponent shaklan ot turkumiga taalluqli bo'ladi, lekin ma'nosi tomonidan ko'p vaqt belgini anglatuvchi sifat turkumiga juda yaqin turadi.

Qo'ng'iroq ovoz

Yuk mashina

Olov nafas

Shamol tegirmon

1.Olmosh+ot . Olmoshlarning barcha turlari ham bosh so'z bilan (ot,olmosh va otlashgan so'zlar bilan)birikavermaydi. Olmoshlardan faqat ko'rsatish,belgilash olmoshlari juda kam bo'lsa ham bo'lishsizlik olmoshi yasashda ishtirok qiluvchi *hech* elementi va hakazo) otga birikib kelishi mumkin:

Hamma odamlar-모든 사람들이

Barcha studentlar-다 학생들이

3.son +ot. Bu turdagi bitishuvli birikmaga son turkumiga aloqador bo'lgan ayrim turlar kiradi. Sanoq son+ot, tartib son+ot, chama son +ot, taqsim son+ ot:

Yigirma besh student- 학생이 스물 다섯 명

Yigirmatadan qalam -스물 짝 연필

4.sifat +ot. So'z birikmalari sistemasida eng keng tarqalgan tur sifat bilan otning bitishuv yo'li bilan bog'lanishidir. Bunda ham yuqorida qayd qilingan qoida ish ko'radi, ya'ni birinchi component doim o'zgarishsiz qoladi, o'zgaradigan mucha ikkinchisidir:

Yaxshi odam -좋은 사람

Uzoq yo'l-긴 길

go'zal tabiat-아름다운 자연

5.sifatdosh +ot.Fe'ning funksional formalaridan sifatdoshning ayrim formalari ham ot bilan bitishuvli birikma hosil qiladi.bulardan eng ko'p ishga solinadigan turli –gan(-yotgan, -digan) affiksi yordamida yasaladigan formadir. Sifatdoshlarning boshqa turlari nisbatan kamroq ishlatiladigan (-ar/ur,-jak).

Ot+ot tipidagi qo'shimchasiz birikkan bog'lanishda quyidagi asosiy ma'no turlarini qayd qilish mumkin:

1.Ergash mucha vositasida kelgan ot(birinchi komponent) bosh so'z (predmet) nimadan yasalganini, materialini ko'rsatadi, movut chopon, qamish devor, chilvir belbog', temir qoshiq;predmet materialining bir qismiga ishora: *zar do'ppi, tosh yo'l, qovoq somsa*

2.bosh so'zga bog'lanib kelgan komponent predmetning nimaga moslanganligini, mo'ljallanganligini bildiradi:*yuk mashina, qo'litiq tayoq, deraza parda, elektr chirog', lampa shisha.*

3.birinchi mucha shaxsning (predmetning)kasbini , mashg'ulotini bildiradi barcha izohlovchilar ham shu turga kiradi: *matros yigit, muhandis ayol, dehqon bola, traktorchi qiz.*

4. Birinchi mucha ikkinchisining holat-harakatini izohlaydi, aniqlab beradi, yoki shaxsning (predmetning)biror tomonini nimagadir qiyoslaydi, o'xshatadi: *g'oz yurish, it hurish, mirza turish, yov qarash, shoir tabiat, xo'roz qant bodom qovoq, dutor bo'yin, qo'ng'iroq ovoz, ketmon soqol, qo'y ko'z kabi.*

5. Birinchi so'z ikkinchi komponentning millatiga (qabila, elat) ishora qiladi: *rus ayol, o'zbek ayol, koreys qiz.*

6. Ergash so'z bosh so'zning joyini , qayerdan kelib chiqqanligini bildiradi: *chust do'ppi, namangan olma, marg'ilon atlas, qo'qon arava*(agar birinchi mucha oxiridagi –i qo'shimchasi o'qilmaydi deb faraz qilsak, iroqi sovun, qobili sho'rva, kashmiri ro'mol kabi birikmalarni ham shu tipga kiritish mumkin.) aslida birinchi so'zga qo'shilib kelgan –i qo'shimchasi yoki nisbiy –iy elementiga aloqadordir;

chinni idish, buxori saqich, shohi ko'ylak birikmalari ham shu tipdagi qo'shimchalardir.

7. Ergash so'z bosh so'zning jinsiga ishora qiladi: *jo'ja xo'roz, qiz bola, o'g'il bola, erkak kishi*.

8. Miqdor anglatuvchi otlarning yolg'iz o'zi birikmaning birinchi komponenti bo'lib kela olmaydi, bunday hollarda ergash so'z oldidan birorta sanoq son kelib so'z birikmasi hosil qiladi: *bir mashina odam, o'n qop un, ikki qop guruch*.

Ergash so'zni takrorlash bilan bosh so'z aniqlanadi va o'ziga xos aniqlovchili konstruksiya hosil bo'ladi: *qop-qop un, arava-arava odam, mashina-mashina paxta*.

Ot+ot tipiga aloqador bo'lgan birikmalar tilda tez-tez ishga solinadigan leksemalarning yordamida xuddi shu tipdagi birikmlarni hosil qiladi: *bosh, qo'l, oyoq, bozor, suv, shamol, ota, ona, ba'zi ovqat nomlari yordamida shakllanadiki, ularni ma'lum bir semantik turga ajratish qiyin: ona yer, ota meros, suv tegirmon, qo'l o'roq, guruch sho'rva, qozon kabob, bosh maqola*. Bunday yasalishlarning miqdoriy nisbati juda ko'p.

Bitishuv yo'li bilan birikadigan qo'shilmalarning ikkinchi guruhini sifat+ot tipidagi bog'lanishlar tashkil etadi. Bunday bog'lanishlarda ham birinchi komponent qo'shimcha (so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha) olmaydi. O'zgaruvchi komponent birinchi muchadir. Sifat+ot tipidagi bog'lanish aniqlovchili birikmaning(aniqlovchili konstruksiyalarning) keng tarqalgan turidir. Birikmaning birinchi komponenti asliy sifatlardan , ikkinchi bo'lagi esa ot yoki otlashgan so'zlardan iborat bo'ladi: *yangi kitob, azim daryo, xom ashyo, baland bino*.

3.sifatdosh+ot tipidagi bog'lanishlar so'z birikmasi sistemasida juda katta o'rinni ishg'ol qiladi. Sifatdosh formalaridan –gan(-yotgan, -digan) affiksini olgan fe'l formasi shu vazifada –aniqlovchilik vazifasida juda keng miqyosda ishga solinadi.

Bu forma ham o'zi aniqlab kelgan otga bitishuv yo'li bilan birikadi: *o'qigan bola, o'tirgan kishi, kelayotgan bayram*.

Koreys tilida ham sifatdoshning uch xil: hozirgi-는, o'tgan:-ㄴ/은, kelasi: -ㄹ/을 qo'shimchalarini bilan yasaladigan shakllari mavjud bo'lib,

Kelayotgan talaba-오는 학생

Kelgan talaba-온 학생

Keladigan talaba-올 학생

Tarzida birikmalar tuziladi.

4.olmosh+ot tipidagi bog'lanish nisbatan kam uchraydi. Olmosh turlari faqat ko'rsatish, so'roq va belgilash olmoshlarigina ergash mucha vazifasida kelishi mumkin: *anavi kitob*-그 책

Barcha onalar-모든 어머니들이

Qanday kishi-어떤 사람

Qaysi kun- 무슨 날

5.son+ot tipidagi birikmalarning miqdori nisbatan ancha. Bunda son turkumiga aloqador bo'lgan so'z otning miqdoriy aniqlovchisi vazifasini o'taydi.jamlovchi son turidan tashqari barcha son turlari otli birikma tarkibida ergash mucha sifatida ishtirok qilishlari mumkin. Ularning ot bilan aloqasi so'zlarning (komponentlarning)qat'iy tarkibi bilan belgilanadi, ya'ni birinchi o'rinda son, undan keyin bosh mucha-ot yoki otlashgan so'zlar keladi: birinchi boylik- tan sog'ligi(maqol), ming qarg'aga bir kesak(maqol), bir yil dadam Shohimardonga olib borgan edi(A.Qahhor).

Nisbiy sifat+ot tipidagi birikmalarda *-li, -lik, -gi, -dagi, -iy/viy* kabi qo'shimchalarni ayrim olimlar (M. Balakayev, M. Zakiyev) ikki so'zni grammatik aloqaga kirishuvida vosita rolini bajaradi degan fikrni bayon qiladilar.

bir oylik ish-일 달인 일

bir yillik reja-일년인 목적

-gi affiksini olgan so'z payt ma'nosidagi aniqlovchilik birikmani tuzishda ishtirok qiladi, bunda -gi affiksini oluvchi so'zning leksik ma'nosi bosh rolni o'ynaydi:

Bu yilgi bahor-올해 봄

Hozirgi kun-여즈음

-dagi affiksini olgan nisbiy sifatlar ishtirokida yasalgan birikmalarda ham asosan payt va o'rin-masofa ma'nosini bildiruvchi konstruksiyalar yasaladi.

Quyidagi so'z-다음에 있는 단어

Otgan yildagi ta'lim-작 년에 있는 공부

-iy/-viy qo'shimchasi asosan arab tilidan kirib o'zlashgan so'zlarga qo'shilib , ad'ektiv birikma hosil qilishda ishtirok etadi:

Oilaviy gazeta-가족인 신문

Ilmiy ish-과학적인 일

Tabiiy gul – 자연스러운 꽃

Sun'iy nafas-합성의 숨

Siyosiy hayot - 정치에 참여하는 생활

2.2-§ Erkin so'z birikmalarining grammatik tabiatini ochish.

Erkin so'z birikmalarining o'zaro bog'lanishi ikki xil bo'ladi:

Teng bog'lanish

Tobe bog'lanish

Ikki so'zning teng huquqli , biri ikkinchisiga bo'ysunmay bog'lanishi teng bog'lanish deyiladi.

Daftar va kitob-공책 과 책

It va mushuk-개 와 고양이

Bir so'zning boshqa bir so'zga bo'ysunishi orqali bog'lanishi tobe bog'lanishdir:

Opamning kitobi-언니의 책

o'quvchining so'mkasi-학생의 가방

so'zlarning tobelanish asosida bog'lanishi **so'z birikmalarini** hosil qiladi va so'z birikmasi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lishiga qaramay, bitt a tushunchani ifodalaydi.

Qizil gul-빨간색 꽃

Uyga bormoq-집에 가다

So'zlarning teng bog'lanishi **so'z qo'shilmalarini** hosil qiladi. So'z qo'shilmasida har bir so'z ma'no mustaqilligini ,alohida –alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi:

Opam va kitob-언니 와 책

Siz bilan biz-당신 과 우리

Soʻz qoʻshilmalarida soʻzlar sanash ohangi (yozuvda vergul) yoki teng bogʻlovchilar vositasida birikadi.

Soʻz birikmasi va soʻz-Soʻz birikmalari ham soʻzlar kabi narsa ,belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin soʻz -leksik hodisa, soʻz birikmasi-grammatik hodisadir. Soʻz birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi.

Masalan, **kitob** soʻzi bir narsaning umumlashgan oti boʻlib ,yolgʻiz tushunchani ifodalaydi, **oʻrtogʻimning kitobi** birikmasida esa faqat <kitob> maʼnosining oʻzi emas, balki <oʻrtogʻimga tegishli kitob>tushunchasi ifodalanadi.

책- 친구의 책

Soʻz birikmalarida maʼno, tushuncha ancha aniq va ravshan boʻladi:

Nor- erkak tuya,

Gʻoʻnan- ikki yashar ot

Ezma - sergap odam

Shuning uchun lugʻatlarda soʻzning maʼnosini ochib berishda soʻz birikmalaridan foydalaniladi.

Soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz -Tilshunoslikda soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz oʻzaro bir-biridan farqlanadi. Soʻz birikmasida ham, soʻzda ham qismlar bir xildagi soʻz turkiumlariga oid boʻlishi , har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega boʻlishi mumkin. Bu ularning shakliy oʻxshashligidir. Lekin soʻz birikmasidagi qismlar maʼno mustaqilligini saqlagan boʻladi. Qoʻshma soʻz tarkibidagi qismlarning maʼnosi esa saqlanmagan boʻlib, qoʻshma soʻzning umumiy maʼnosi orqali anglashiladi.

Soʻz birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qoʻshma soʻz qismlari orasidagi grammatik aloqa esa yoʻqolgan boʻladi.

Soʻz birikmasini tashkil etgan qismlarning har biriga alohida –alohida soʻroq berish mumkin:

Kitobni(nimani?)oʻqimoq - 책을 읽다.

Uydan(qayerdan)chiqmoq - 집에서 나가다

Qo'shma so'zlarga esa yaxlit bir savol berish mumkin:

Kungaboqar(nima?)

Kamquvvat(qanday?)

So'z birikmasining qismlari o'z mustaqil so'z urg'usini saqlagan bo'ladi:

Uyning eshigi - 집의 문

Xatni o'qidim - 편지를 읽었습니다.

Tez yugurdi - 빨리 뛰었습니다.

Qo'shma so'z esa umumiy bir urg'uga ega bo'ladi:

Oqko'ngil

Bilakuzuk

Qo'shma so'zlarning ko'pchiligi tarixan so'z birikmalari asosida yuzaga kelgan.

So'z birikmalari zanjiri - Gap tarkibida bir so'z birikmasidagi hokim so'z boshqa bir so'zga tobelangan, bir hokim so'z bir nechta tobe so'z yoki bitta tobe so'z bir necha hokim so'zga aloqador bo'lgan hollarda **so'z birikmasi zanjiri** hosil bo'ladi. So'z birikmasidagi tobe va hokim so'zlar orasida bir necha boshqa so'zlar va so'z birikmalari kelishi mumkin:

Uchta paxta gulli chinni piyola

Shimoldan esgan shamol

Shimoldan esgan mayin shamol

Uch kundan beri shimoldan esgan mayinshamol

So'z birikmasi va gap

So'z birikmasi ham , gap ham so'zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. So'z birikmasi biror narsa , belgi,harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglanadi. Gap esa ma'lum bir fikrni , tasdiq yoki inkor hukmni ifodalab keladi. Gapda predikativlik bo'lib uning markazi kesimdir. U kesimlik qo'shimchalari bilan shakllangan bo'ladi.

Tilshunoslik adabiyotlarida erkin so'z birikmalarining nutqda shakllanishi ta'kidlanadi. Bunga e'tiroz yo'q,albatta. Biroq, so'z birikmalari tahlilida ularni vazifani bajarmoq,tez gapirmoq tarzida nutqdan ajratilib o'rganiladi. Fe'lli birikmalarning mazkur ko'rinishi nutqdagi so'z birikmalarini emas, balki ularning

sxematik modelini taqazo etadi. Bundan tashqari, so'z birikmasi nutqda bunday shakllanmaydi ham . boshqacha aytganda, fe'lli birikmalarning hokim komponenti nutqda biror zamon shaklida bo'ladi. ⁷

Gapda so'zlar o'zaro munosabatga kirishib , turli xil sintaktik vazifalarni bajaradi. Bu jarayonda so'z birikmalarini tashkil etgan so'zlar ham bunday vazifalarni bajarar ekan, ularni gapdan ajratib olib tahlil qilish to'g'ri emas. Erkin so'z birikmasi komponentlari hech qachon mavhum vazifani bajarmaydi,lekin ular nutqimizning ma'lum bir ehtiyoji uchun nutqqa ko'chiriladi va sintaktik faollik oladi.

Qizning yuzlari qizarib ketdi.

여자의 얼굴은 빨갱게 되었습니다.

Mayin shabada uning yuzlarini siypalab o'tdi.

맑은 바람이 그 여자의 얼굴을 만지고버렸습니다.

Berilgan misollarning birinchisida shakllangan yuzlari qizarib ketdi qurilmasiga e'tibor beraylik. Bunda yuzlari ega, qizarib ketdi qismi esa kesim vazifasida kelayapti. Ulardan birining tildan nutqqa ko'chirilishi ikkinchisini ham talab qiladi va natijada predikativ belgili sintaktik qurilma tashkil topadi.

Ikkinchi misolda esa yuzlarini siypalab o'tdi birikmasi komponentlari to'ldiruvchi –kesim munosabatini taqazo etmoqda. Boshqacha aytganda, bu o'rinda birinchi darajali aktant(ega) va fe'l munosabati emas, balki ikkinchi darajali aktant (vositasiz to'ldiruvchi) va fe'l munosabati shakllanmoqda.

So'zlarning bog'lanish usullari ,asosan, iki katta guruhga bo'lib o'rganiladi:

1.sintetik usul. Bu usulning tub mohiyati shundan iboratki,so'z birikmasini hosil qilgan muchalardan (komponentlardan)biri biror qo'shimcha oladi, shu qo'shimcha __affiks yordamida bir so'z ikkinchisini bir so'zga grammatik jihatdan bog'lanadi va fikr almashish uchun tayyor material vazifasini o'taydi.

Bunday bog'lanish so'z o'zgartiruvchi deb atalgan qo'shimchalar yordamida yuzaga keladi. Bunga kelishik qo'shimchalari , egalik affikslari, sifatdosh , ravishdosh formalarini yasovchi formantlar va boshqalar kiradi. Shuningdek , ba'zi olimlarning

⁷ Xayrullayev Xurshid zayniyevich « so'z, so'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati».__Toshkent-2001.

fikricha ba'zi bir so'z formalari va yasovchi qo'shimchalar ham so'zlarning o'zaro aloqaga kirishuvida ishtirok etadi. So'z yasovchi -li,-lik, -cha, -gi,-dagi,-day,-iy,-viy. Bu qo'shimchalar tilning butun morfologik strukturasi qamrab olgan ba so'zlarning Grammatik bog'lanishuda qandaydir vosita rolini bajarib kelgandek ko'rinadi.

2.Analitik usul. Bu usulning asosiy xususiyati shundan iboratki, birikmani hosil qilishda ishtirok etuvchi komponentlarning tobe bo'lagi hech qanday qo'shimcha olmay bosh muchaga bog'lanadi va bosh muchaning o'zgarishi tobe so'zga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Bunday hollarda ikki so'zning o'zaro bog'lanishini yordanchi so'zlar, yoki ko'makchilar ta'minlaydi.

Bu ikkita asosiy usuldan tashqari hozirgi o'zbek tilida so'z tartibi ham so'zlarning o'zaro sintaktik aloqasini ta'minlovchi vositalardandir. Bunday ko'rinish koreys tilida ham ko'p jihatlari bilan o'xshaydi:

a)Ikkita olma - 사과 두 개

Olma ikkita - 사과 두 개 입니다.

Kabi birikmalarda so'z tartibining o'zgarishi aniqlovchili birikmani predikativ birikmaga aylantirib yuborgan.

b) charm etik - 가죽 구두

etik charm - 구두 가죽 입니다.

bunday birikmaning birinchisida charmdan tikilgan etik, ikkinchisida etikka mo'ljallangan charm ma'nosi bor.

Shunday qilib so'zlarning o'zaro sintaktik aloqaga kirishuvida sintaktik va analitik usullardan foydalanilar ekan , so'zlarning o'zaro bog'lanishi deganda uchta asosiy usul - moslashuv,boshqaruv va bitishuv yo'llari tushuniladi.

X U L O S A

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Umumxalq tilining mazmunli, ta'sirchan birliklaridan biri erkin so'z birikmalari bo'lib, ular har qanday tilning uslubiy-bo'yoqdorlik xususiyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi boy manba hisoblanadi.

2. Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davriga qadar erkin so'z birikmalarining o'ziga xos xususiyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Biroq erkin so'z birikmalarini o'zbek va koreys tili materiallari nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etish masalasi e'tibordan chetda qolgan. Bizning nazarimizda har ikki til erkin so'z birikmalari asosida bu jarayonga aloqador jihatlarni tahlil etish ba'zi masalalar xususida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi.

3. erkin so'z birikmalari va uning o'ziga xos xususiyatlari xususidagi ilmiy qarashlar jahon tilshunosligida V.I.Koduxov, Yu.S.Maslov, B.N.Golovin, O.I.Moskalskaya, M.N.Olxovikov singari olimlar tomonidan turli darajada rivojlantirilgan. O'zbek va koreys tilshunosligida esa Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, A.Hojiyev, Yu.N.Mazur, E.G.Mun, X. Xayrullayev, F.Abdullayev kabi olimlarning so'z birikmasi yuzasidan olib borgan tadqiqotlari alohida diqqatga sazovordir.

4. O'zbek tilshunosligida erkin so'z birikmalari masalasidagi umumiy qarashlar jahon va rus tilshunosligidagi shu muammoga doir qarashlardan qariyb farq qilmaydi. Koreys tilshunosligida esa mazkur masala yuzasidan bildirilgan umumiy fikrlar bir xil, biroq farqli jihati ham ko'zga tashlanadi. Koreys tiliga oid biz o'rganib chiqqan ilmiy adabiyotlarda asosan so'z birikmalarining leksik-semantik tomonini tahlil etishga e'tibor qaratilgan, uning grammatik tabiati xususidagi fikrlarga duch kelmadik.

6. Koreys va o'zbek tili so'z birikmalarining tasnifi jihatidan o'zaro farqlanishga ega emas. Zero, ularning har ikkalasida ham erkin va turg'un so'z birikmalari ajratiladi. Mazkur so'z birikmalariga xos xususiyatlar ham bir xil.

7. O'zbek va koreys xalqlaridagi bilim xarakteri, tafakkuri, turmush tarzi, milliyligining o'xshash hamda farqli jihatlari ham mazkur xalqlar tilidagi erkin so'z birikmalarining leksik-semantik sathida o'z aksini topadi.

8. erkin so'z birikmalarining morfologik-sintaktik tabiati uning grammatik qurilishidan kelib chiqadi. Erkin so'z birikmalarining ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil so'z ishtirok etadi. O'zaro sintaktik bog'langan mazkur leksemalar tuzilishiga ko'ra birikmaga teng bo'ladi. Bizning o'rganish obyektimizni erkin so'z birikmalari tashkil etadi.

9. Koreys va o'zbek tilidagi erkin so'z birikmalari tarkibidagi leksemalarning muayyan turkumlarga mansub bo'lishi hamda gap ichida yaxlit holda so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bo'lak vazifasida kelishiga ko'ra farqlanmaydi: har ikki tilda bu holatni kuzatish mumkin.

10. Koreys tiliga oid biz o'rganib chiqqan ilmiy adabiyotlarda asosan erkin so'z birikmalarining leksik-semantik tomonini tahlil etishga e'tibor qaratilgan, uning grammatik tabiati xususidagi fikrlarga duch kelmadik. Shu jihatdan qaraganda, bu borada chiqargan xulosalarimiz ko'proq nisbiylikka ega.

15. Koreys va o'zbek tili materiallari asosida so'z birikmalarining morfologik-sintaktik tabiatini o'rganish masalasi tilshunoslik fanining muammoli masalalaridan hisoblanib, kelgusida bu borada olib boriladigan ishlar ko'lami juda keng.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov.I.A – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori- Toshkent: O'zbekiston,
2. Asqarova M.,Yunusov M,Асқарова М.,Yo'ldoshev M.,Muhamedova D.O'zbek tili praktikumi.O'quv qo'llanma.-Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006.- 304 b.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.
4. Begmatov A, Abdusaidov A. Matbuot tilida frazeologik neologizmlar.O'zbek tili va adabiyoti- Toshkent2002, №1.
5. Sayfullayeva R.R.,Mengliyev B.R.,Boqiyeva G.H.,Qurbonova M.M.,Yunusova Z.Q.,Abuzalova M.Q.Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.-416 b.
6. Головин Б.Н. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1977. – 311 с.
7. Hojiyev A.Lingvistik terminlarning izohli lug'ati- Toshkent: o'qituvchi, 1985. – 144 б.
8. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Talqin, 2005. -272 b.
9. Корейский язык. Сборник статей. – М.: Изд.вост.лит., 1961. – 239 с.
10. Mamatov A.-Umumtil frazemalari asosida frazemik shakllanish. O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 1999, № 5.
11. Maxmudov N, Nurmonov A.-O'zbek tilining nazariy grammatikasi- Toshkent:O;qituvchi, 1995. – 232 б.
12. Мазур Ю.Н. Корейский язык. – М.: Изд.вост.лит., 1960. – 118 с.
13. Мазур Ю.Н. и др. Краткий русско-корейский словарь. 27.000 слов. – М.: ГИС, 1958. – 648 с.
14. Mirzayev M, Usmonov S,Rasulov I.-O'zbek tili.-Toshkent:O'qituvchi, 1970. – 263 б.

15. Ольховиков Б.А. Грамматикализация словосочетания и устойчивость синтаксической модели // Вопросы романо-германской филологии. Часть I. – М.: 1-й Моск.гос.пед.инс.иностр.яз., 1963. – 296 с.
16. Прокопович Н.Н. Вопросы синтаксиса русского языка. – М., 1974.
17. Rahmatullayev SH.-O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.- Toshkent:O'qituvchi, 1978. – 405 b.
18. Turniyozov N. Nazariy grammatikadan ocherklar.-Samarqand:SamDCHTI, 1998. – 59 b.
19. Tursunov U, Rahmatullayev SH, Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent:O'zbekiston, 1992. – 392 b.
20. [http: / koreanbooks.ucoz. ru.](http://koreanbooks.ucoz.ru)
21. Xayrullayev Xurshid zayniyevich « so'z, so'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati». __Toshkent-2001.
22. F. Abdullayev «Til qanday rivojlanadi?» O'zbekiston Fan nashriyoti- Toshkent-1972.
23. Sh. Rahmatullayev «Nutqimiz ko'rki» O'zbekiston Fan nashriyoti – Toshkent- 1970
24. 한국어 어휘 연습. – 299 b.